

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Polvonova Mahliyo

**MAVZU: «Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini
shakllantirish va faollashtirish texnologiyalari»**

Mundarija

Kirish

I BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirining ilmiy-nazariy asoslari

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatining xususiyatlari

Birinchi bob bo'yicha xulosa

II BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini eksperimental o'rganish

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari tahlili

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

III BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish texnologiyalari

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuni
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali usullari

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e‘tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlab, jamiyatni ma‘naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganlaridek: «Biz jamiyatimizdagi quyi pog‘onadagi tartib, intizom va mas‘uliyatni mutlaqo o‘zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug‘ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug‘ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas‘uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo‘yishimiz kerak» ¹. Sog‘lom avlodni tarbiyalab o‘stirish g‘oyatda mas‘uliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlar jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Maxsus maktabda eshitishida nuqsoni bo‘lgan va zaif eshituvchi bolalarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mamlakatimizda ona va bola, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarning uzviy davomi sifatida samarali bo‘lishiga to‘liq asos bor. Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom,

¹ Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.

ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadgamuofiq. Mamlakatimiz ta'lim tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich maktabgacha ta'limga uning moddiy va ma'naviy bazasini mustahkamlashga ham katta ahamiyat beriladi. Milliy surdopedagogikada maxsus ta'lim sohasida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi Maxsus ehtiyojli bolalarni to'laqonli ta'lim olishi jamiyat qo'llab-quvvatlashi, ularni sog'lomlar qatorida jamiyatga uyg'unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni Davlatimizning bir qator qonun va qarorlarida qayt etilgan. Hozirgi kunda, Prezidentimiz tashabbusi bilan Davlatimizda ona va bola sog'lig'ini tiklash, nogiron, zaif va boshqa nuqsonlar bilan tug'ilgan bolalarga ta'lim – tarbiya berish, ularni jamiyatga foydasi tegadigan insonlar qilib tarbiyalash uchun g'amho'rlik qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim standartlarida maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar ta'limiga qo'yiladigan davlat talablari va shu talablar asosida tuzilgan «Uchinchi ming yillikni bolasi» bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi tuzilgan. Ushbu hujjat «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda « Sog'lom avlod» Davlat dasturini hayotga tadbqiq etishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim — tarbiya berishning asosiy maqsadi - yosh avlodni milliy mafkurasi asosida sog'lom har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan

iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan xam turli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning bilish faoliyatidagi nuqsonlarini bartaraf etish ishlari korreksion ishlar tizimi asosida amalga oshirilishi lozimligi barcha maxsus adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan. Biroq amalda, bu borada talaygina qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Ma'lumki, birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonlarni yetaklab keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitmasligi yoki qisman eshitmasligi bilish faoliyatining rivojlanishiga ham bevosita va bilvosita ta'sir qiladi. Rus psixolog olimi L. Ch. Ivanovning fikricha nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutqi bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa fikr qilolmaydi. Tafakkur bo'lmasa nutq til bo'lishi mumkin emas deydi². Ivanovning yuqoridagi fikridan ko'rinib turibdiki insonning psixik rivojlanishi uchun nutq va tafakkur jarayonlari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Qadimgi yunon faylasufi Arastu inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarib, uning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi»³ Zamonaviy maxsus ta'lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo'lmasligini keltirib chiqarsa, o'z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etadi. Eshitishida muammoci bo'lgan bolalarni atroflicha o'rgangan R.M.Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib o'tadi.⁴

² Павлова Л.Н. Знакомим малыша с окружающим миром – М.: Просвещение, 1997. – 22 с.

³ Выготский Л.С. Основы дефектологии – М.: Педагогика, 1993. Т.5. – 38 с.

⁴ Боскис Р.М. Учителю о детей с нарушениями слуха. – М.: Просвещение, 1998. – 18 с

Rivojlanishida nuysini bo'lgan o'quvchilarga korreksion-pedagogik yordamni samarali tashkil etish va ularni kasbga yo'llash borasida G.N. Mersiyanova, G.M. Dulnev, V.I. Antipov, V.I. Karvyalis, Ya.Ya. Kravalis, S.L. Mirskiy, Ye.A. Kovaleva, V.F. Machixina, N.P. Pavlova, V.A. Shinkarenko, I.P. Freytag singari sobiq ittifoqlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar Respublikamizda aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularning nuqsonlarini yo'qotish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari kabi masalalar S. Sh. Aytmetova, L.R. Mo'minova, I.G. Radisheva, G'.B. Shoumarov, D.A. Gordienko, S.G. Kim, A. . Soatov, V.S. Raxmonova, Z. B. Em, G.A. Sodiqova, R.Sh. Shomaxmudova, P.M. Po'latova, D.A. Nurkeldiyeva, M.P. Xamidova, L.Sh. Nurmuxamedova, Sh.M. Amirsaidovaarning izlanishlarida tadqiq etilgan⁵. Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I. Leongard, Ye.G. Samsonova N.D. Shmatko, T.V. Pelimskaya, I.V. Koroleva, V.I. Pudov, O.V. Zontova, A.D. Salaxova, N.V. Kochegarova, V.N. Svodina kabi yetuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq. Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishda muammosi bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqdi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A. Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.G.Zikeyev, S.A.Zikov, A.I.Dyachkov, E. V. Mironova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, E. I. Leongard, M.K. Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis kabi rus olimlarining diqqat markazida bo'lib keldi. Ushbu olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni

⁵Nurmuxamedova L. Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. : Ped. fan. nomz. dis. . . . avtoref. – Toshkent:Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. – 17 b.

rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi⁶. Bolalarning tasviriy faoliyatni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi tasviriy faoliyat ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. B.D.Korsunskaya, M.K. Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar tasviriy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini ta'kidlasalar, E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N. D. Shmatko, T. V. Pelimskaya, L. A. Golovchis bu jarayonda asosiy, hal qiluvchi o'rinni ota-onalar va oila a'zolari egallashlarini uqtiradilar⁷ B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ya'ni ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini ta'kidlasalar, E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N.D.Shmatko, T.V.Pelimskaya, L.A.Golovchis bu jarayonda asosiy, hal qiluvchi o'rinni ota-onalar va oila a'zolari egallashlarini uqtiradilar.⁸ Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda⁹. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A.Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.G.Zikeyev, S.A.Zikov, A.I.Dyachkov, E.V.Mironova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, E.I.Leongard, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis kabi rus olimlarining diqqat

⁶Сурдопедагогика/Под ред.М.И.Никитиной.–М.:Просвещение,1999.-346.

⁷ Л. А. Головщиц Дошкольная сурдопедагогика . — Москва: Просвещение,2009. —88

⁸Nazarova D.A.Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU.2009. – 24b.

⁹ Специальная педагогика. Под ред..Назаровой Н.М.– М.: Академия, 2004.–40 с.

markazida bo‘lib keldi¹⁰. Ushbu olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ham, xuddi sog‘lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo‘lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi¹¹. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog‘i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me‘yorlarni egallashning zaruriy shartidir. B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog‘li erta boshlansa, ularning hayotga, ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo‘lishini ta’kidlasalar, E.I.Leongard, Ye.G.Samsonova, N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, L.A.Golovchis bu jarayonda asosiy, ya’ni hal qiluvchi o‘rinni otalilar va oila a‘zolari egallashlarini uqtiradilar. Milliy surdopedagogikada olib borilgan tadqiqotlarda N.Sh.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjayeva, U.Yu.Fayziyeva, N.H.Dadaxo‘jayeva, D. Nazarova, F.U.Qodirova eshitishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko‘tarishning yo‘l va vositalari asoslab berildi. ¹²Maxsus ta’lim sohasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o‘rganilgan. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish sohasida xorijda G.G.Grigorev, A.V.Zaporojes, Y.I.Ignatev, A.A.Lyublinskaya,

¹⁰F.U Qodirova. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU, 2006. – 20 b.

¹¹SultonovaD. Agar farzandingiz eshitmasa...// Bola va zamon. – Toshkent 2006. – № 2. – B.28-30.

¹²FayzievaU.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b

Y.A.Poluyanov, N.P.Sakulina, Y.A.Flerina, K.M.Lepilov, Y.V.Rezigroyev, V.I.Beyer, G.N. Panteleyev, L.V.Panteleyeva, S.A.Zikov, T.S.Zikova, L.P.Noskova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, N.G.Soshnikova, V.Petshak, D.J.Higginbotham, A.R.Zedenberg, B.P.Yusova, N.D.Mini, M.Y.Rau, E.I.Leongard, YE.G.Samsonova N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova, A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova, V.N.Svodina, L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A.Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.I.Dyachkov, E.V.Mironova, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchin; milliy surdopedagogikada N.SH.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjayeva, U.Y.Fayziyeva, N.H.Dadaxo'jayeva, F.U.Qodirova, D.Nazarova, R.Raximovalarning eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalarini asoslab berish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.¹³ Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot vazifalari:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
- Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini o'rgatish bo'yicha amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish;

¹³ F.U Qodirova. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU, 2006. – 20 b.

- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish samaradorligini oshirish yo‘l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish texnologiyalari

Tadqiqot predmeti: Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayoni

Tadqiqot bazasi: Toshkent shahar Olmazor tumani 106- sonli zaif eshituvchilar maktab internati qoshidagi maktabgacha tarbiya bo‘limi

Tadqiqotning ilmiy farazi: shundan iboratki, agar:

- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning yo‘llari va usullarini har tomonlama o‘rganilsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonida eshitishi nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali yo‘llari, qulay shart-sharoitlari yaratilsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning usullari:

- Mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o‘rganish;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonini kuzatish va tahlil qilish;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo‘yicha ish tajribasini o‘rganish;
- Maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchilarining tibbiy-pedagogik hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

— Savol-javob, suhbat, so‘rovnoma, kuzatish;

Tadqiqotning metodologik asosini: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi», birinchi prezidentimiz I.A. Karimov asarlarida olg‘a surilgan ma’naviyat haqidagi g‘oyalari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat

I BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirining ilmiy-nazariy asoslari

1.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonida mazkur kategoriyadagi bolalarda zaif eshituvchilikni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganish muhim omil sanaladi. Xususan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda zaif eshituvchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar orasida o'rta quloqning shamollash kasalliklari va ularning natijalari asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Ko'pincha bu o'zgarishlarga antibiotiklarni noto'g'ri, ortiqcha iste'mol qilish, shuningdek, o'rtamiyona otitdan davolanish yo'llari sababsiz bosh tortish sabab bo'ladi. Oxirgi yillarda yiringsiz quloq kasalliklari o'rta quloqning kataral va seroz kasalliklari bilan xarakterlanuvchi zaif eshituvchilar guruhi ko'paymoqda. Bunday kasallar soni 3 yoshgacha bo'lganlar orasida 1000 ta tekshiriluvchiga 5,3 dan ko'proq to'g'ri keladi (Yu.M.Nikitina 1972). Ana shunday qiziq ma'lumotlarni chet el mualliflari keltirib o'tishgan. H.Anderson, E.Wedenberg (1970) larning ma'lumotlariga ko'ra, Shvedsich maktab o'quvchilarini ommaviy ko'rikdan o'tkazishda genetik asosga ega bo'lgan yaqqol eshitishning pasayishi 2,9% bolalarda kuzatilagan. Angliyada 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda neyrosensor xarakterga ega eshituv buzilishlariga ega bo'lganlar soni 500ta tekshiriluvchidan 1tani tashkil etadi (Fraser G.R, 1971). AQShda esa nasliy va tug'ma karlik keng tarqalganligi ma'lumdir¹⁴. Xuddi shunday ko'p mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimizda 2000 dan 4000 gacha kar bolalar tug'iladi. Kar va zaif eshituvchilikning yana ham keng tarqalganligi maktab o'quvchilari orasida bo'lib, (29%), ularning 14% maxsus yordamga muxtojlardir¹⁵.

¹⁴ Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Ушаковой Н.В. –М., 1999 – 26 с.

¹⁵ Элконин Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. - М., Просвещение, 1998. –12 с

Boshqa davlatlardagi bolalar eshituvini tekshirishlarning statistika ma'lumotlari ham o'xshash muammolarni namoyon etadi (1974, 1977, 1978 va boshqalar). Shunday qilib, yurtimizda va chet elda bolalar eshitish qobiliyatini tekshirish, bolalar kasalliklari orasida karlik ahamiyatli o'rinni egallaydi va yechimini topish uchun ko'p muddat talab etiladi. Eshituv patologiyalari bilan bog'liq nuqsonlarni tushunish uchun nafaqat psixologo-pedagogik teshirishlar natijalariga, balki eshituv patologiyasi diagnostikasini va eshituv organlari kasalliklarida davolash chora-tadbirlarini ta'minlovchi otalaringologlar ma'lumotlariga ham tayanish kerak. Ko'p yillar davomida ko'p mualliflar fikricha, katta insonga xarakterli barcha xususiyatlar xomilaning o'zida mavjud bo'ladi, rivojlanish jarayoni esa o'zida ana shu mavjud xususiyatlarning ochilishi va namoyon bo'lishini aks ettiradi. Ushbu preformizma (preobrazovaniya) nomini olgan nazariyaga asosan, rivojlanishning butun jarayoni nasldan aniqlanadi, tarbiya esa-mavjud tug'ma xususiyatlarning namoyon bo'lishi uchun sharoitdir¹⁶. Ko'rsatilgan nazariya hozirgi kunda ham mamlakatimiz va chet el pedagogik va psixologik ilmida o'z tarafdorlariga ega. Bu rivojlanish muammolarining mexanik, jamoaviy bayonidir. U bolalarda oliy psixik funksiyalarining shakllanishida haqiqiy rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri tushunishga yo'l bermaydi va pedagogik amaliyotni nazariy qurollantirmaydi, chunki bola rivojlanishiga ta'lim va tarbiya ko'rsatadigan ta'siriga e'tibor bermaydi. Xotira, faol diqqat kabi murakkab psixik funksiyalar rivojlanish jarayonida shakllanadi. Ular asosida nafaqat tabiat bergan ne'matlar, balki bola faoliyatining turlari va yo'llari, atrof-olam bilan muloqot ko'rinishlari yotadi. Har qanday psixik jarayon o'zining rivojlanishida o'zi bilan ham nasliy, ham muhit ta'sirini olib yuradi. Lekin ushbu ta'sirlarning solishtirma og'irligi psixikaning turli tomonlari uchun turlidir, turli yoshda ham turlichadir va hokazo. Masalan, oddiy harakat amali bola hayotining ilk bosqichlarida shakllanib, o'zining rivojlanishida ko'proq biologik omillarga tayanadi, nisbatan murakkab predmetli maqsadga yo'naltirilgan psixomotor doiraga kiritilgan harakatlar nisbatan uzoq

davom etuvchi shakllanish va ko‘pincha ijtimoiy, sharoit omillariga bog‘liq bo‘ladi. Inson psixikasi organik birligi va shakllanish jarayonida bosib o‘tuvchi turli bosqichlarni hisobga olib shuni qayd etish kerakki, murakkab rivojlanuvchi psixik jarayonlar – ular qatorida boshqariluvchi diqqat, faol eslab qolish, fikrlash faoliyati, shuningdek, xarakter, xulqning rivojlanish, shakllanish jarayonini uzoq muddat bosib o‘tadilar (maktabgacha, maktab, o‘spirinlik, o‘smirlik davrlarda), naslga ko‘ra atrofdagi ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘ladi. (bolaga ta’lim-tarbiya berish sharoiti, madaniy-maishiy olam, muloqot qilish xarakteri, faoliyat turi va yo‘llari va x.k).Bolaning rivojlanish jarayoni har bir yosh davrida nafaqat miqdoriy o‘zgarishlar, balki shaxs sifatleri va hususiyatlari o‘zgarishi vujudga keladi.Psixik rivojlanish yuqorida aytib o‘tilganidek bir qator davrlarni o‘z ichiga oladi. Yosh davrlari rivojlanish xususiyatlarini bilish juda muhimdir, chunki shaxs psixologik sifatlarining shakllanish jarayoni har bir yosh davri rivojida o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir.¹⁷Har bir oldingi rivojlanish bosqichi keyingisiga tayyorgarlik yaratib, bola psixologik rivojining boshi hisoblanadi. U yoki bu yosh davri rivojida nuqsonning yuzaga kelishi keyingi rivojlanish bosqichlariga ta’sir etib qolmaydi.Psixologik tajriba va psixologo-fiziologik tadqiqotlar asosida quyidagi bolalar psixologik rivojlanishining yosh davrlari ajratiladi¹⁸: ilk bolalik davri 1 yoshdan 3 yoshgacha, maktabgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha, boshlang‘ich sinf davri – 7 yoshdan 11 yoshgacha, o‘spirinlik davri – 11 yoshdan 15 yoshgacha, o‘smirlik davri – 15 yoshdan 17 yoshgacha.Psixikaning barcha qirralarining rivojlanishi bolada o‘z faoliyati va atrofdagilar xulqini tanqidiy baholashga ta’sir etadi. Buning o‘zi bola shaxsini shakllantiruvchi asos va markaz hisoblanadi.

Shaxs sifatlarining rivojlanish darajasi o‘z navbatida mustaqil faoliyatning turli ko‘rinishlari shakllanishiga ta’sir etadi. Xissiy-irodaviy doira o‘z ichiga nafaqat

¹⁷ Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Ушаковой Н.В. –М., 1999 –М., 1999 – 10 с.

¹⁸ Элконин Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. - М., Просвещение, 1998. –22 с

xulq, kechinma, atrofdagi borliqqa munosabat, faoliyatni asoslash, balki sub'ektning barcha intellektual faoliyatini boshqaradi. Bola shaxsiyati xarakteristikasiga ilmiy materializm tomonidan yondashgan olim, psixologlardan birinchisi L.S.Vigotskiy hisoblanib, u I.P.Pavlovning shartli reflekslari nazariyasiga, shuningdek, uni organizm kompensator imkoniyatlari holatiga tayanib, L.S.Vigotskiy bolalarni dinamik yondashib o'rganishni qat'iy tavsiya etdi¹⁹. Uning fikricha bola o'tgan hayot yo'lida egallagan natijalarining o'zinigina hisobga olmay, yaqin kelajakdagi imkoniyatlarini ham aniqlash kerak, nafaqat bugungi tugagan rivojlanish jarayonini, nafaqat tugagan davrni, nafaqat mushohada qilingan jarayonlarni, balki yuzaga chiqayotgan, mushohada bo'layotgan va rivojlanayotgan jarayonlarni ham hisobga olish muhimdir. L.S.Vigotskiy bolani o'rganishda bola mustaqil bajara olmaydigan ishlarini sinab ko'rish bilan cheklanmay, yordamdan qanday foydalanish, kelajakda ularga ta'lim va tarbiya berish uchun oldindan tavsiyalar berishni maslahat beradi. Ayniqsa, psixik jarayonlar davom etishining sifatli o'ziga xosliklarini o'rnatish kerakligini, shaxs rivojining perspektiv namoyon bo'lishi masalalarini chuqur ko'rib chiqadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus maktablar amaliyoti turli guruhdagi eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish samarali natija bermasligini aniq tasdiqlab berdi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga differensial ta'lim berishni tashkillashtirish uchun bolalarni tasniflovchi turli tamoyillar ma'lumdir. R.M.Boskis eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi qonuniyatlarini har tomonlama o'rganishga, rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida olingan dalillarni solishtirishga asoslanuvchi nuqson tuzilishini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvni ishlab chiqdi²⁰. I.P.Pavlovning analizatorlar xaqidagi ta'limotiga binoan, xis etish organlari munosabatiga bir tizim sifatida qaralib, har bir xis etish organi ishi barcha

¹⁹ Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Ушаковой Н.В. –М., 1999 – 23 с.

²⁰ Элконин Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. -М., Просвещение, 1998. –42 с

analizatorlar bog‘liqligi bilan shartlanadi. R.M.Boskis shuningdek, L.S.Vigotskiyning istalgan analizator nuqsoniga ega bolaning psixik rivojlanishi murakkab tuzilishi g‘oyasini ham qo‘llaydi. Birorta xis etish organi nuqsoni yoki yo‘qolishi barcha tizimga ta’sir etadi, mavjud xis etish organlarining har birida turlicha aksini topadi. Eng ko‘p qiyinchilikni esa buzilgan analizatorga eng yaqin bo‘lgani xis etadi. Zararlangan analizator bilan faoliyat jihatdan boshqa analizator qanchalik kam bog‘langan bo‘lsa, shunchalik yaxshi funksiyallanadi. Bolalik davrida eshitishning buzilishi tasnifining asosiy maqsadi eshitish nuqsoniga ega bolalar ta’lim-tarbiyasini tashkil etishga ko‘maklashishdan iborat. Bunday tasnifga asosiy kriteriy bo‘lib eshituv funksiyasining buzilish darajasi xizmat qilishi kerak. Tabiiyki, zaif eshituvchi bolalar ta’lim-tarbiyasi shakli va metodlari bunday bolalarda odatdagi nutqiy muloqotni qiyinlashtiruvchi eshitish pasayganligini yoki eshituv yordamida mustaqil nutq rivojini barbot etuvchi chuqur eshituv burilishi bor yo‘qligiga ko‘ra turli bo‘ladi. Biroq, faqatgina ushbu omilni (eshituv tuzilishi darajasi) hisobga olishning o‘zi o‘qitishni to‘g‘ri tashkil etish uchun yetarli bo‘lmaydi. Muhim o‘rinlardan birini eshituv buzilishiga olib kelgan patologiyaning vujudga kelgan vaqti rivojlanish jarayonini tashkil etadi. Bundan tashqari, eshitishning turg‘un tuzilishi bolalarda katta yoki kichik nutqiy rivojlanish qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Ushbu buzilishlarning xarakter va darajasi turlichadir-talaffuzdagi oddiy kamchiliklardan, to nutqning umuman bo‘lmasligiga qadar. Bundan ko‘rinib turibdiki, bir holatda ayrim nuqsonlarga ega bo‘lgan so‘zlashuv nutqi bo‘lsa-yu, boshqa holatda nutq umuman rivojlanmagan yoki mavjud bo‘lmasa, ta’lim berish metodikasi va mazmuni ham bunday nuqsonli bolalarga alohida-alohida tanlanadi²¹. O‘z navbatida eshitishning turg‘un buzilishi tasnifida nafaqat eshituv funksiyasining zararlanish darajasi, balki nutq holati ham hisobga olinishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqiy funksiyasi yetishmasligi xarakter va darajasi 3 ta asosiy omilning o‘zaro munosabatiga bog‘liq:

²¹ Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Ушаковой Н.В. –М., 1999 – 77 с.

eshitishning jarohat darajasiga, jarohat yuz bergan vaqtga va jarohat yuzaga kelgandan keyingi sharoitga. Bu esa umumiy quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin²²:

- 1.Bola qanchalik yomon eshitsa, shunchalik yomon gapiradi;
- 2.Nuqson qanchalik erta yuzaga kelsa, sharoitlar ham shunchalik qiyinlashadi;
- 3.Normal nutqni bolada tarbiyalash yoki rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar qanchalik erta boshlansa, shunchalik yaxshi, boshqa o‘xshash xolatlarda bolaning nutqi saqlanadi yoki rivojlanadi.

Eshitish nuqsoniga ega bola nutqining holati, shuningdek, eshituv organlarida nuqsonning o‘tib borishiga ham bog‘liq. Agar eshitish progressiv ravishda pasaysa, nutq holati va eshituv orasiga mos bo‘lmagan holat, aynan nutq rivojlanishining ko‘p bo‘lmagan buzilishi, eshituvning esa birdan pasayishi kuzatilishi mumkin. Bunday mutanosiblikning buzilishi eshituv buzilish nutq rivojlanish davrida nutqning rivojlanish buzilishiga ta’sir etish darajasiga yetmaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunga esa qo‘shimcha qilib aytish kerakki, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqining rivoji normal eshitadiganlar kabi ularning o‘ziga xosligi bilan, birinchi navbatda esa – intellekti bilan bog‘liqdir. Bolani u yoki bu eshitishi buzilish darajasiga kiritishda asosiy e’tiborni eshituv orqali nutqni idrok etishga qaratish kerak. Eshituv funksiyasining buzilish darajasiga ko‘ra 2 xildagi eshituv buzilishi ajratiladi-karlik va zaif eshituvchilik. Karlik deganda umuman eshitishning yo‘qolishi yoki nutqiy muloqot (nutqni egallagan odamlar uchun) nutqni mustaqil egallashi (xali nutqni egallamagan odamlar uchun) umuman mumkin bo‘lmagan holatlar ko‘zda tutiladi. Umuman, karlik juda kam hollarda uchraydi. Odatda karlikda ayrim baland tovushlarni, bular qatorida ayrim nutqiy tovushlar, shuningdek, ayrim so‘z va iboralarni idrok qilish mumkin bo‘lgan eshitish qoldig‘i mavjud bo‘ladi. Eshitish buzilishining ikki asosiy ko‘rinishiga muvofiq tarzda turg‘un eshitish nuqsoniga ega bolalar 2 turga: kar va zaif eshituvchilarga bo‘linadi.

²² Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990. – 33 с.

Kar bolalar qatoriga tugʻma yoki hayotining ilk yillarida orttirilgan mustaqil ogʻzaki nutqni egallay olmaydigan yoki mavjud u yoki bu darajadagi nutqni yoʻqotuvchi bolalar kiritiladi. Ushbu kategoriyada nisbatan kech eshituvini yoʻqotgan va mavjud nutqini saqlab qolgan bolalar ajratiladi (maktabgacha yoki maktab davrida). Bu guruh bolalar kech kar boʻlgan bolalar nomini olgan. Juda ham kam miqdordagi bolalarda eshitishning umuman boʻlmasligi kuzatilishi mumkin, shuningdek, baland ovozlarga reaksiyaning ham yoʻqligi, ayrimlari esa quloq suprasining oldidan oddiy muloqot balandligidagi ovozni ham idrok eta oladilar. Baland yoki muloqot balandligidagi ovozni idrok etish maʼlum darajada nutqiy tovushlarni ajratishga ham mos kelishi mumkin. Faqatgina quloq suprasining yonida baland ovozlarni eshitish nutqiy tovushlar, soʻzlar va iboralarni eshitish imkonini bermaydi. Muloqot balandligidagi ovozga quloq suprasida yonida boʻlsa xam reaksiya bildirish ahamiyatli darajada nutq elementlarini ajratish imkonini beradi. Ushbu guruhdagi bolalarning koʻpchiligi 2 yoki 3 ta unli, «R» undoshi bilan ayrim soʻz va iboralarni ajratadilar. Kar bolalarni audiometrik tekshirishda maʼlum boʻldiki, turli bolalarda eshituv qoldigʻi bir xil emas. Ayrim bolalar faqatgina past tovushlarni idrok qilsalar, boshqalari pastlardan tashqari oʻrta balandlikdagilarni ham, uchinchilari esa baland tovushlarni idrok etadilar²³. Qabul qilinayotgan tovushlar intevsivligida eshitish yoʻqolishi yuqori darajada boʻlsa ham barcha karlarning (eshitish yoʻqolishi, nutq zapasida 80-85 db dan oshadi) idrok etishi va noqulaylik chegarasi unchalik katta emas (25-30 db dan oshmaydi) va shuning uchun ayrim karlar orasidagi farq bu borada nisbatan yengildir. Oʻz navbatida karlar atrof olam tovushlarini ajratishlarida karlarning mavjud imkoniyatlari, shuningdek, nutqning ayrim elementlarini ajratish asosan qabul qilinuvchi chastotalar diapazoniga bogʻliq, shunga mos ravishda karlarning eshitish qoldigʻi mana shu belgi asosida tasniflanadi. Eshitish qoldigʻiga ega kar bolalar idrok etuvchi chastotalarini tavsiya etayotgan tasnifimiz boʻyicha quyidagi 4 ta eshituv guruhiga boʻlish mumkin.

I guruh – eng past chastotalarni idrok etuvchi bolalar (125-250 gs);

²³ Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990.– 19 с.

II guruh – past chastotalarni idrok etuvchi bolalar (500 gs gacha);

III guruh – past va o‘rta chastotalarni idrok etuvchi bolalar (1000 gs gacha)

IV guruh – keng diapazondagi chastotalarni idrok etuvchi bolalar (2000 gs dan ortiq).

Aynan shunday eshituv doirasi chegaralarini belgilash quyidagi fikrlar bilan asoslaniladi. Eshituv idroki diapazonini eng past chastotalar, 250 gs dan oshmaydigan chegaralash u yoki bu nutq tovushlarini ajratish imkonini bermaydi. 500 gs eshituv kengligi chastotasi ayrim nutq tovushlarini, masalan, «O», «u» anglash imkonini beradi²⁴. Eshituv kengligining 1000 gs gacha kengayishi nutqiy tovushlarning, asosan unilarni «A» «O» «U» ajratishga imkoniyat yaratadi. Keyingi kengayish esa nutqiy tovushlarni ajratishni yanada kengayishini ta’minlaydi. Bir tomondan chastota kengligini va ikkinchi tomondan nutq tovushlarini ajratish orasida bog‘liqlik bo‘lib, ana shunga ko‘ra bolalarni u yoki bu chastota kengligidagi guruhga kiritish amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchi guruhga kiruvchi bolalardan hech biri nutqiy tovushlarni ajrata olmaydi. Ikkinchi guruhga kiruvchi bolalarning ko‘pchiligi ayrim unilarni ajratadilar. Uchinchi guruhga kiruvchi barcha bolalar 3-4 ta unlini, tanish so‘z va iboralarni ajratadilar. To‘rtinchi guruhga kiruvchi bolalar esa barcha unilarni, shuningdek, tanish so‘z va iboralarni ajratadilar. Shunday qilib, chastota kengligining kengayib borgani sari nutqiy tovushlarni ajratish qobiliyati aniq kengayib boradi. Zaif eshituvchi bolalar qatoriga eshitishning buzilishi mustaqil nutqni to‘laqonli o‘zlashtirishlariga to‘sqinlik qiluvchi, lekin baribir eshitish qoldig‘i yordamida hech bo‘lmaganda chegaralangan nutqiy boylikka ega bo‘la oladigan bolalar kiritiladi²⁵. Mustaqil ravishda nutqni to‘laqonli o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bolada eshitishning 15-20 db tushganidanoq kuzatilishi mumkin. Eshitish buzilishining ushbu darajasini shartli ravishda normal va zaif eshituvchilik orasidagi chegara deb olish mumkin. Zaif eshituvchilik va karlik orasidagi chegara ham nisbiydir, u 75-80 db darajasida deb qabul qilingan; ushbu

²⁴ Элкони́н Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. М., Просвещение, 1998. –45 с

²⁵ Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990. – 22 с.

darajadan oshuvchi eshituv buzilishi bolaga nutq boyligiga mustaqil ega bo'lish imkonini qoldirmaydi. Zaif eshituvchilik turli darajada namoyon bo'lishi mumkin – shivirlab gapirishni idrok etish buzilishidan to muloqot balandligidagi nutqiy idrok eta olishning birdan chegaralanishigacha. Nutqiy diapazon doirasida eshitishning yo'qolish kengligiga ko'ra (500 dan 4000 gs gacha) zaif eshituvchi bolalar quyidagi darajalarning biriga mansub bo'lishi mumkin.

I daraja – eshitishning yo'qolishi 59 db dan oshmaydi;

II daraja – eshitishning yo'qolishi 50 dan to 70 db gacha;

III daraja – eshitishning yo'qolishi 70 db dan oshadi.

Zaif eshituvchilikni aynan shunday chegaralashga sabab bo'lib quyidagi fikrlar bayon etiladi: 50 db dan oshmaydigan eshitish yo'qolishida muloqot balandligidagi nutqni 1 m masofada tushunarli ajratish imkoniyati mavjuddir, ya'ni nutqiy muloqot qilish imkoniyati bor; 50 db dan to 70 db gacha eshitish yo'qolishida muloqot balandligidagi nutqni 1 m dan kam bo'lgan masofada ajratish imkoniyati mavjuddir, ya'ni nutqiy muloqot u yoki bu darajada qiyinlashadi; eshitish yo'qolishining 70 db dan oshishida muloqot qilish balandligidagi nutq quloq suprasi oldida ham tushunarsiz va muloqot faqatgina balandlatilgan ovoz bilan o'rnatilishi mumkin. Zaif eshituvchi bolalarni kar bolalar singari chastota kengligiga tayanib guruhlariga bo'lish ma'noga ega emas, chunki zaif eshituvchilarning ko'p qismi keng diapazonlarda 4000 gs va undan yuqori qabul qiladilar (L.V.Neyman tasnifi). Eshitish nuqsoniga ega bolalarning R.M.Boskis tomonidan ajratilgan pedagogik tasnifi eshituv va nutqning psixologik munosabatini o'rganish bo'yicha nazariy asos sifatida eshitish analizatori buzilgan bolalar rivojlanishda o'ziga xoslikni aniqlaydigan tasnifdir²⁶.

1. Bolada eshitish analizatori faoliyati buzilishi xuddi shunday kattalardagi nuqsondan farqi asosida ko'rinadi.

²⁶ Элкониин Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. М., Просвещение, 1998. –55 с

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola rivojlanishini to'g'ri tushunishda ushbu eshituv holatida mustaqil nutqni o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olish, ya'ni eshituv va nutqning o'zaro munosabatini.
3. Bolada eshituv funksiyasi nuqsonini tanqidiy baholash mezoni sifatida nutq rivojlanishida eshitish qoldig'idan foydalanish qobiliyati olinadi.

Nutq rivojlanishi eshitishning pasayish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi kuzatiladi. Eshituvning kam miqdorda pasayishi nutq rivojlanishida ham kam miqdorda kamchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Eshitishning pasayish darajasi qanchalik og'ir bo'lsa, shunchalik ko'p ravishda nutqning fonetik, leksik va grammatik tomonlarida kamchiliklar kuzatiladi, eshitishning og'ir jarohatida esa bola soqov bo'lib qolishi mumkin.

Bolada ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish, ogohlantirishda eshitish nuqsoni namoyon bo'lgan davrdan boshlab bola qanday pedagogik sharoitda bo'lganligi katta ahamiyat kasb etadi. Turg'un ko'ruv diqqatida xotira eshitish nuqsoni va nutq rivojlanishini kompensatsiya qilish imkonini beradi. Nutqni egallashda tafakkur jarayonlarining xarakatchanligi, bolaning faol shaxsi katta rol o'ynaydi. Bolalarni maxsus bolalar muassasalariga saralashda quyidagi tamoyillar mavjud²⁷:

- A) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni shifokor, psixolog, pedagogning kompleks tekshiruvi;
- B) bolani har tomonlama va butunlikcha o'rganish;
- V) bolani tekshirishda yakka yondashuv tamoyili.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, pedagogik tasnifni yaxshilab borish korreksion, ta'lim-tarbiya ishi darajasi oshishiga hamda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktablarning kerakli sinflariga aniq kriteriylar asosida saralashga (murakkab nuqsonli bolalar sinflari) imkoniyat yaratadi. Rivojlanishidagi nuqsonlarni, shuningdek, eshitishdagi nuqsonlarni ham erta aniqlashda ota-onalar diqqatini bolaning eshitishi va nutqi

²⁷ Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990. – 29 с.

rivojiga qaratish kerak. Maktabgacha ta'limning bosh vazifasi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, shuningdek, bola shaxsini shakllantirish, uning bilimga qiziqishini, madaniy-ahloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirish, ilmga muhabbat qo'yish hissini tarbiyalash, ularda olam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, salomatligini mustahkamlashdan iborat. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim faoliyatini shakllantirish va faollashtirish ularni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar uning pedagogik jihatlarini yangilash, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar asosida yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunda, birinchi navbatda, jarayonning nazariy va amaliy asoslarining mantiqiy bog'liqligi, yosh avlodning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor kishilar bo'lib yetishishlari uchun pedagogik sharoit hamda ta'lim mazmunini taqdim etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi²⁸. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tizimining samarali ishlashiga erishishni ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasi va oilada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim faoliyatini shakllantirish va faollashtirish faoliyatini ta'minlaydigan pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu esa bolalarda atrof-olam hamda undagi voqea va hodisalarni anglash ko'nikmalarini tarkib toptirish vositasida ularning maktab ta'limiga tayyor bo'lishlarini, bu jarayonda lozim bo'ladigan sobitqadamlik, g'oyaviylik, o'rtoqlari, tengdoshlariga do'stona munosabat, ularni tushunish, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim faoliyatini shakllantirish va faollashtirish borasida, ularning nazariy va amaliy bilim asoslarini egallashlari yuzasidan mutaxassislarning turlicha qarashlari mavjud. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilim faoliyatini

²⁸ Т. И. Обухова Изучение готовности младших дошкольников с нарушением слуха к созданию предметного изображения / Т. И. Обухова, Е. Н. Сороко// Дефектология. - 2012. - № 4. - С. 58-65

shakllantirish va faollashtirish jihatlari xususida E.Eysner (AQSH), S.Sezo, S.Tada (Yaponiya), R.Shokar (Fransiya) va boshqalar bu sohaga alohida e'tirof qaratish lozimligini ta'kidlaydilar²⁹. Ayniqsa, yapon olimlarining badiiy tarbiya sohasini, xususan, maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari va maktablarda tasviriy faoliyatdan ta'lim berilishi diqqatga sazovor. Barcha bolalar ham juda kichik yoshligidan qo'lga qalam yoki ruchka tushib qolsa, albatta, duch kelgan joylarga chizib ketaverishadi. Ularda tabiatan ijod qilish ehtiyoji va qiziqishi bo'ladi. Bu sifatni rivojlantirish, shakllantirish esa pedagog-tarbiyachi va ota-onalarning burchidir. Har bir bolaning 100 xil qirrasi mavjud bo'ladi, ular qobiliyatsiz bo'lib tug'ilishmaydi. Ularning qobiliyatini yuzaga chiqara olish yoki chiqara olmaslik mumkin, xolos. Bu degani barcha iqtidorli, qobiliyatli degani emas. Faqatgina aqlan sog'lom bo'lib tug'ilgan bolalarni nazarda tutish mumkin. Yaponiyaning badiiy tarbiya pedagogikasida turli perseptiv harakatlarni shakllantirish asosida estetik bilimlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Ular bolalarni atrof-muhitga, borliqqa diqqat bilan qarashga, mahliyo bo'lib tomosha qilishga, ba'zan maydachuydalarga, lekin ajoyib xususiyatlarga ega bo'lgan hodisalarni detallarigacha diqqat-e'tiborni jalb qilishga o'rgatiladi. Masalan, qotib qolgan suv tomchisini, quyoshga hamma ranglar bilan singayotgan kamalakni havas bilan, zavq bilan tomosha qilishni, shamolning esishidan barglarning shitirlashini eshitishini, yomg'irning shov-shuvi va boshqalarni tavsiya qiladi. Bularning hammasi tabiat hodisalarini anglash jarayonida realistik asosda amalga oshiriladi. Ana shu taassurotlarning amaliy yechimi sifatida naturaga qarab rasm ishlashga katta ahamiyat beriladi. Yuqoridagi yo'nalishlarda tasavvurlarni shakllantirish bolalarda naturadan rasm chizish uchun nazariy asos bo'ladi. Fransuz pedagogi P.Shokar bolalarning tasviriy ijodini rivojlantirishda qo'l grafik ifodaning eng asosiy vosita hisoblanishini qiziqarli chizma, mundarijasini ifodalab beradi. "4 yoshdan 5 yoshgacha onalarga tegishli maktablardagi bola" kitobida bolalarni grafik ifodaga

²⁹Б.П Юсов. Проблема художественного воспитания и развития школьников. Автореф. дис. . . . док.пед.наук. — Москва,- 32 с.

o'rgatish zarurligini ta'kidlab, P.Shokar bu jarayonda uchta bosqichni ajratadi³⁰. Birinchi bosqich - o'z-o'zidan yuzaga keladigan (tashqi ta'sirsiz) razm solish jarayonidan iborat bo'lib, bu jarayonda pedagog bolani kuzatadi, uning tasvirlashga oid ko'nikmalarini aniqlaydi, uning faoliyati mahsuldorligini baholab, fikr bildiradi. Ikkinchi bosqich - ishlov berish davri deb atalib, o'zida bolaga tasvir usulini o'rgatishni ifodalaydi. Bunda rahbarlik rolini tarbiyachi olib boradi. Faqat ana shundan keyingina uchinchi bosqich - erkin rasm chizishga o'tiladi. Bu davrda tarbiyachi bolalarning rasm chizishdan tajribasini oshirishga harakat qiladi. Bu uch bosqichni o'tab bo'lgach, bolalarning rasm chizishlari ijod qilishga qarab yuksaladi. Bolalarning tasviriy faoliyatini katta yoshdagilarning nazorat qilishi, rahbarligi zarurligini AQShning bir qator olimlari (B.Djefferson, E.Kramer, E.Eysnerva boshqalar) e'tirof etdilar³¹. Haqiqatan ham, E.Kramer katta yoshdagilarning rahbarligi, ularning madadi, qo'llab-quvvatlashi bolalarning umumiy rivojlanishi va ijodning gurkirashi uchun juda muhimligi haqida yozadi. Albatta, bolalarga ko'mak, dalda berib, ularga yo'nalish ko'rsatib, faoliyatini boshqarib turish lozim. Keyingi yillarda ayrim pedagog tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari uchun bir qancha bir-biriga bog'liq dasturlar yaratildi. Xususan, 2004-yilda rossiyalik olimlar M.A.Vasilyev, V.V.Gerbova, T.S.Komarovalar tomonidan tayyorlangan tipovoy dastur, asosan, har tomonlama aniq vazifalar asosida topshiriqlar berishga, maktabgacha ta'lim yoshidagi barcha bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bolalarni maktabga tayyorlashni ko'zda tutadi³². L.V.Kutsakova tomonidan yaratilgan «Konstruirovaniye i ruchnoy trud v detskomsadu» dasturi, asosan, bolalarning konstruktorlik

³⁰ Д.Н Колдина Д.Н. Лепка/Аппликация с детьми 3-4 лет.-М.: Мозаика-Синтез,2007.-35.с.

³¹ Г.В. Кузнецова Рисуем дождик. Коррекционно-развивающие зануатия по обучению графическим навыкам детей 5-7 лет с проблемами в развитии средствами изодеятельности. -М.: Гном-Пресс,2002.-23.с.

³² Г.В. Кузнецова Рисуем дождик. Коррекционно-развивающие зануатия по обучению графическим навыкам детей 5-7 лет с проблемами в развитии средствами изодеятельности. -М.: Гном-Пресс,2002.-23.с.

qobiliyatini va tasvirlashdagi ijodiy qobiliyatlarini, har xil metodlar asosida modellashtirish va konstruksiyalash bilan tanishtirishdan iborat. Bu dastur noan'anaviy usullar asosida turli materiallar yordamida konstruksiyalashni amalga oshirishni, unda qog'oz, karton, qurilish, tabiiy, tashlandiq va boshqa materiallar bilan ishlashni nazarda tutgan³³.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning bilish faoliyati va nutqining shakllanganlik darajasi tasviriy faoliyatda aks ettiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar obyektni idrok qilishda, sog'lom eshitadigan bolalarga qaraganda xotirada kam belgilarni saqlab qoladilar va ajratadilar. Xotiraga tayanib rasm chizishda ular hatto ularga yaxshi tanish obyektlarda ham ularga xos qismlarni tushirib qoldiradilar, masalan, odamni tasvirlaganda – bo'yin qismi, daraxt rasmda esa shoxlari qolib ketadi va hokazo. Maktabgacha tarbiya muassasasigacha yoshdagi bolalarda asl predmetga qarab rasm chizishda, ko'pincha kuzatuvlarga emas, balki berilgan predmetlarni stereotipik usulda, maktabgacha tarbiya muassasasigacha yosh davrida o'zlashtirilgan malakalari asosida tasvirlashga harakat qiladilar. Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog'liqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshdagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berishni taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg'otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o'stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san'at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko'nikmalarni egallab oladilar, san'at go'zalligini, boyligini ko'ra bilishga o'rganadilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish kar va zaif eshituvchi bolalar hayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi.

2.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatining xususiyatlari

³³ Н.В Краснов. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изд. искусство, 1999. — 175.с.

Hozirgi kunda zamonaviy, har tomonlama komil, bilimdon, ishbilarmon yoshlarning kamol topishini ta'minlash maktab, oila va jamoatchilik tomonidan yoshlarga kuchli e'tibor, yetarlicha keng bilim berishni talab etadi. Bu masala o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z ona tilini mukammal egallashisiz hal bo'lmaydi. Ana shu avlodning to'laqonli a'zosi sifatida kar bolalar ham jamiyat rivojlanishida o'z o'rniga egadir. Ularning tilni egallashi sog'lom tengdoshlariga nisbatan o'ziga xos kechadi. Bu o'ziga xoslik mazkur bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta'sir etadi. Ushbu cheklanganlik kar bolalarga ona tilini o'rgatishda maxsus pedagogik, psixologik yondashishni, xususan, tilga maxsus o'rgatishni tashkil qilishni talab qiladi. Eshitishning buzilishi aksariyat hollarda nutqsizlik, mazkur nuqson tufayli og'ir nutq buzilishlari yoki umumiy nutq rivojlanmasligiga olib keladi. Kar bolada umumiy rivojlanish bilan bog'liq holda nutqning shakllanishi ham o'ziga xos kechadi. Sog'lom bolada nutq shakllanishining ilk davridagi kabi, kar bolada ham ovoz, un chiqarishlar sodir bo'ladi. Tug'ma kar bo'lgan bolalarda ham gu-gulash, yig'lash xususiyatlari bo'lib, bular xuddi sog'lom bolalardagidek tashqi yoki ichki muhitdan keladigan signallar—ochlik, tashnalik, sovuq, issiqqa bog'liq bo'ladi. Kar bolada eshitish idrokining nuqsonliligi tufayli o'z-o'zidan tashqi muhit bilan bog'lanish vazifasini uning teri, ta'm, hid bilish, ko'rish orqali sezish imkoniyati bajara boshlaydi. Kar bola 3-4 oylik bo'lganda havo to'lqinlari (vibratsiya)ni sezishi kuzatila boshlaydi. Bunda kar bola havo to'lqinlarining tebranishi-vibratsiyani his qilishi orqali atrofdagilarni «eshitadi». qaysi tomondan to'lqinning kelishi bilan bog'liq holda ko'z qorachig'i, bosh harakatlarini amalga oshiradi. Kar bolaning nuqsoni ko'pincha 6 oylik, ya'ni o'yinchoqlarga intilish, ulardan chiqayotgan ovozlarni farqlash, ovoz manbai tomonga qarashning sustligi yoki yuqligidan aniqlanadi. Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to'g'ri tashxis qo'yilib, kar bolaga e'tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo'ladi. Aksincha bo'lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog'liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya'ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi. Bunda ota—ona va yaqinlarining e'tibori qanchalik kuchli bo'lmasin, maxsus yondashuv tashkil etilmas ekan, bolaning umumiy rivojlanishi orqada

qolaveradi . Chunki eshitish idrokining vazifalari nihoyatda muhimdir. Kar bola nafaqat oddiy nutqiy tovushlarni, balki nonutqiy tovushlarni ham qabul qila olmaydi, qabul qilsa ham farqlay olmaydi. Shu bilan birga kar bola ovozli, soʻzli nutq mavjudligini, ular inson faoliyatini tashkil etishini, boshqarishini ham anglamaydilar. Natijada ular boshqalarning soʻzlarini eshitmagach, oʻzlari ham soʻzlarni talaffuz etishdek, gapirishdek oliy-ijtimoiy neʼmatlardan bahramand boʻla olmaydilar. Demak karlik juda chuqur insoniy sifatning shakllanishiga salbiy taʼsirini berganligi bois, kar bola jamiyatdan ajralib qolishi mumkin³⁴. Bola koʻrib, taʼm, hid bilib, teri orqali sezib yashasa-da, bu harakatlar yashash uchun yetarli boʻlmagan tizimiga mosdir. Kar va zaif eshituvchi bolada nutqning shakllanish mexanizmini aniqlash uchun ichki nutq mohiyatini anglash muhimdir. Ichki nutq rus olimlarining tadqiqotlarida quyidagicha taʼriflanadi: ichki nutq fikrning iqtisodiy taʼminoti, inson ongi va aqliy faoliyati mexanizmi, nazariy va amaliy faoliyatni rejalashtirish demakdir “Aynan eshitish va nutqiy sezish ichki nutqning hosil boʻlishi uchun asosdir, "oʻzgalar uchun nutqdan oʻzi uchun nutq" hosil boʻladi"-deb taʼkidlaydi A.S.Vigotskiy . Ushbu maʼlumotlar, yaʼni ilmiy qarashlar kar bolalarni tilga oʻqitishda oʻz oʻrniga ega. Bunda ichki nutq mexanizmining xususiyatlari uning eshitish qobiliyati nuqsonliligidagi oʻziga xosligini aniqlashga imkon yaratadi. Bolada mantiqiy tafakkurning rivojlanishi uchun yetakchi va asosiy omil eshitish idrokining rivojlanishi hisoblanadi. Fikrni nutq orqali ifoda etishda ichki nutqning ahamiyatini ochib berish boʻyicha qator olimlar tadqiqot qilganlar . Ushbu tadqiqotlardan biz uchun muhim umumiy holatni keltiramiz, yaʼni ichki nutq natijasida fikr qurilmasi paydo boʻladi. Pirovardida u yoyiq nutqiy ifodaga aylanib qoʻllaniladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning jismoniy va ruhiy xususiyatlari XIX asr oʻrtalaridanoq pedagog va vrach-psixologlar eʼtiborini oʻziga jalb etib kelgan. V.I.Fleri, F.A.Ostrogradskiy, I.M.Logovskiy,

³⁴ Коровин К.Г. Практическая грамматика в системе специального обучения слабослышающих детей языку. – М., Педагогика, 19996. – 25 с.

F.A.Rau kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jismoniy va ruhiy xususiyatlarini o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir fikrlar beriladi. Xususan, V.I. Fleri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar harakat ko'nikmalar xususiyatlarini ta'riflab, noto'g'ri koordinatsiya, harakatlarning ishonchsizligi kuzatilishini ta'kidlaydi. N.M. Logovskiy, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e'tirof etadi. Ushbu olim karlikda ruhiy rivojlanish buzilishini kompensatsiyasida ko'ruv idrokining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi³⁵. L.S. Vygotskiy genetik tamoyillar tahlili asosida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining xususiyatlarini yoritib beradi. Kar bolaning rivojlanishi ijtimoiy sharoiti psixologik yangi holatlar kuzatilishini asoslashini e'tirof etadi. L. Vygotskiyning fikr-mulohazalari maxsus pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shdi, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni tabaqalab o'qitish muammolariga o'zgacha qarash imkonini beradi. Uning nazariy ta'limoti eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kompensator imkoniyatlarini tadqiq etuvchi eksperimental psixologik tadqiqotlarga stimus sharoitida ta'sir etgan. L.S. Vygotskiy safdoshlari L.K. Zankov va Sh.M. Solovev rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan eshitishda nuqson bor bolalar idrokini xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tadqiqotlar o'tkazdilar va tadqiqot natijalarini jamladilar³⁶. 1930-40 yilda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini o'rganuvchi qator tadqiqotlar o'tkazildi, xususan K.I. Veresotskaya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V.Zonkov va D.R. Mayns ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M.M.Nudelman kar bolalar tassavurlarini, Z.S. Beyn ko'ruv idrokini konstantligini, N.I.Shif eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ranglarni idrok etish xususiyatlari, M.E. Votsev kar bolalarni

³⁵ Шиф Ж.И. Усвоение языка и развития мышления у глухих детей. – М.: Просвещение, 1990. – 33 с.

³⁶ Психология глухих детей. /Под ред. Соловева И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Ушаковой Н.В. –М., 1999 – 96 с.

yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar³⁷. D.Plapinger va R.Kretchmerlar o'z ilmiy ishlarida yoritib,eshitishda muammosi bo'lgan bolalar bilan onalarning muloqot shakli ,muloqot uchun shart –sharoitlar o'rganiladi.Tadqiqot natijasiga ko'ra kitob bilan ishlash,kesma rasmlar bilan o'yin davomida onalarning ixtiyoriga muvofiq muloqotga kirishilganligi,ovqatlanish,cho'milishga ehtiyoj natijasida bolalar tomonidan muloqotga kirishish qo'llanilganligi aniqlangan³⁸.Eshituvchi ona va kar bola muloqotini o'rganishda kuzatish metodini qo'llashga doir Amerika psixologlarining tadqiqotini keltirish mumkin. Kuzatish metodining amaliy ahamiyatini amerikalik olimlardan D.Plapinger va R.Kretchmerlar o'z ilmiy ishlarida yoritib,eshitishda muammosi bo'lgan bolalar bilan onalarning muloqot shakli ,muloqot uchun shart –sharoitlar o'rganiladi. Ular 13 oy mobaynida turli sharoitda ona va bola o'zaro munosabatini video registratsiya yordamida kuzatganlar. Olimlarni quyidagi ko'rsatkichlar bilan qiziqqanlar: kimning tashabbusi bo'yicha muloqotga kirishildi, nutqiy muloqot doirasi va xususiyatlari qay tarzda amalga oshdi (gap turi so'rov, undov, buyruq, his-hayajon). Olimlar ba'zi sharoitlardagi muloqotda ona tashabbuskor bo'lganini (kitob o'qish, kesma alifbo bilan ishlash) holda amalga oshgan. Bola tashabbuskor bo'lgan holatlarni ham (o'yinchoq o'ynash) ko'zatganlar. Turli sharoitlarda muloqot miqdor va sifat jihatdan farqlangan holatlari namoyon bo'ldi. Kar bolada eshituv sezgisi va idrokini yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lish L.V.Zankov, I.M.

³⁷ Элкони́н Д.Б. Особенности психического развития детей 6-7 летнего возраста. М., Просвещение, 1998. – 30 с.

Solovev, K.I. Veresotskoy, tadqiqotlarida dalillangan.³⁹ Xattoki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi va idroki faollashtirilishi haqida ma'lumot berilgan. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshituvchi bolalar karlarga nisbatan yashil, siyoxrang, qizil, sabzi ranglar ko'p almashtiradilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ranglarni nozik farqlaydilar. L.V.Zankov va I.M. Solovev ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlarda, eshituvchi bolalar chizgan rasmlarga nisbatan ko'p detal va qismlarni qamrab olgan bo'ladi. Kar va eshituvchi bolalar rasmlari taqqoslanganda eshituvchi bolalar rasmlarida predmetlarning muhim qismlarini tasvirlarda mavjud emasligi ko'rinadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bunday kamchiliklar kam bo'ladi, lekin ular fazoviy munosabatlar ifodalangan rasmlarni qiyinchilik bilan chizadilar. L.V.Zankov va I.M.Solov'ov ta'kidlashicha ko'ruv idroki jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchilarga nisbatan predmetning qo'shimcha detallariga ko'p ahamiyat beradilar. Shu sababli, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning analitik tipii sintetik tipidan ustun turadi, deb ko'rsatish mumkin. I.M.Solov'ov bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchi bolalarga nisbatan ko'ruv sezgisi ustun degan xulosaga olib kelmaydi, deb e'tirof etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko'ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv va ko'ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o'rganadi. Nutqi mavjud bo'lmagan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limning boshlang'ich bosqichlarida idrok etilganini umumlashtirish va sintezlashda, tasniflashda qiyinchilik sezadilar. Bu rang va predmet tushunchasi bola idrokida yetarli darajada taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Bunday differensial va taqsimlash eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nutq egallaganida, uning nutqida predmet va sezgi ma'nosini ifodalovchi so'zlar uning lug'atida shakllanganida

³⁹ Миронова Э.В. и др. Педагогические методики выявления детей с подозрением на снижение слуха. – М.: УРАО, 2000. – 40 с.

imkon tug'iladi. K.G. Korovin kuzatishlarida fikr nutq shakllanishining birinchi komponenti sifatida tashqi ko'zg'atuvchi, ya'ni motivni tushunish hisoblanadi. Ikkinchi komponent sifatida ichki nutqda qurilgan fikr hisoblanadi. Nutq-fikrning hosil bo'lishidagi bu bosqichda so'z tanlash, ya'ni ichki nutq kodining muayyan til birliklariga aylanishi sodir bo'ladi. Nutq hosil bo'lishining uchinchi komponenti ichki nutq asosida fikr qurilmasini tuzish hisoblanib, bu bosqich fikr-gapning grammatik qurilishi bosqichi deb nomlanadi. To'rtinchi komponent fikrni nutqiy ifoda shaklida tashqarida qo'llash hisoblanadi. Bunda nutqning tashqi bezagi-talaffuzi va intonatsiyasi, ichki bezagi esa-tuzilishi, grammatik qurilishi hisoblanadi.⁴⁰ Yuqorida keltirilgan "fikrdan nutqqacha yo'l" ning ochib berilishi yuzasidan ma'lumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarga til o'rgatish amaliyotida qator xulosalarga olib keladi. Ular nutqiy murojaatlarning hosil bo'lishida ichki nutq mexanizmlarining ahamiyatini ochib beradi va tafakkur bilan birga nutq orasidagi bog'liqlikni namoyon qiladi. I. Pavlov ta'limotiga asosan, nutq tafakkur zamiri hisoblanar ekan, u holda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish mumkin bo'lmaydi yoki cheklangan holda mumkindek tuyuladi. Biroq bu xulosa noto'g'ri, chunki kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog'lom bolalar qatori maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni natijasida maxsus belgilangan (aynan shu bolalar fiziologik, psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqilgan) talablarni egallash imkoniyatiga egadir. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tilni muloqot vositasi sifatida egallashga o'rgatish jarayonining asosini so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqini shakllantirish tashkil qiladi. Ushbu jarayonga psixologik-pedagogik tavsif berish kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq shakllari va nutqiy vositalarning o'zaro fiziologik, psixologik munosabatini tahlil qilishni taqozo qiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni shakllantirish va rivojlantirish boshqa sog'lom analizatorlarga tayanish orqali amalga oshiriladi. E.P. Musatovning fikricha yozma nutq dastlab

⁴⁰ Коровин К.Г. Усвоение основных грамматических понятий учащимся старших классов школы слабослышащих. –М.: Педагогика, 1988. -112 с.

predmetlar va namoyish etilishi kerak bo'lgan yoki etilgan harakatni ifodalash uchun beriladi. Faqat ritmika darsida undan foydalanishga to'xtalganda muallif yozma nutqning ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Bunda u buyruqlar («o'ngga», «tur», «yugur», «roslan» kabilar)ni bolalarga berishda kartochkalardan foydalanishni ko'zda tutadi T.V. Nesterovich esa yozma nutqqa o'zgacha yondoshadi. Uning tavsiyalarida ko'rsatilishicha, kar bola qanchalik erta mustaqil yozishni bilsa, u atrofdagilar bilan kengroq muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik tez ega bo'ladi. Mazkur muallifning ishlarida kar va zaif eshituvchi Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlarni bilishi, predmetlarni nomlashi, gap tuzishi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq u ham nutqiy materialdan bevosita muloqot jarayonida foydalanish ustida to'xtalmaydi. Nesterovich T.V. Nesterovich fe'lning ahamiyatini holat va harakat ifodasi sifatida biladi. Boshqa mualliflar esa fe'lni harakatga undovchi sifatida ta'riflaydilar. Uning tavsiya qilishicha, yozma nutqqa o'qitish ota-onalarga xat yozishdan boshlansa, unda u bolalarning ehtiyojiga javob beradi va nutqning rivojlanishiga turtki bo'ladi.⁴¹Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish masalasi nutqning fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganmasdan turib, to'g'ri va to'la hal qilinmaydi. Fiziologlar tomonidan olib borilgan kuzatishlarning ko'rsatishicha, nutq shartli reflekslar asosida shakllanadi. Bosh miyaga ta'sir qilgan nutqiy qo'zg'atuvchilar bolaning shu reaksiyaga javobi nutqiy reaksiyani chaqiradi. «So'zlovchining nutqini eshitib qabul qilish nutqiy harakatga turtkidir»-deb hisoblaydi A.N.Sokolov.Demak eshitish orqali qabul qilingan qo'zg'alishlar takrorlash orqali mustahkamlanuvchi artikulyatsion reaksiya hosil qiladi. Bu holat quloq orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchilarning ifodasigina emas, balki tovushlarning differentsiatsiyasiga va qabul qilingan qo'zg'alishlardan qolgan izlarning saqlanishiga yordam beruvchi omildir.Ma'lumki, inson tovushlarni artikulyatsiya, ya'ni talaffuz qilgandagina, uni

⁴¹ Нестерович Т.В. Некоторые вопросы формирования грамматического строя речи у глухих школьников младших классов // Дефектология. – 1989. -№6. – с. 46-49.

yaxshi differensiatsiyalaydi va esda saqlaydi. Tayyor kartochkalar bilan ishlaganda harakat sferasi mustasno qoladi. Chunki qo‘zg‘atuvchilarning differensiatsiyalanish va ulardan qolgan izlarning saqlanish jarayoni faqat ko‘rishga asoslanib qoladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tayyor kartochkalar asosida talaffuz (artikulyatsiya) ning ishtirokisiz tilga o‘qitish yuqori natija bermaydi. Yuqorida keltirilganidek, kar va zaif eshituvchi bolalar so‘zlashuv nutqining yozma shakli xususiyatlari yuzasidan tajribalar mavjud. O‘zbek tili yozuvining tovush-harf tarkibini egallash bilan bola murakkab nutqiy bilish faoliyat turiga kirib keladi. Bola o‘z nutqini ongli ravishda tahlil qiladi, talaffuzini farqlaydi. Eshitib farqlagan so‘z (tovush, bo‘g‘in)ni yozuvda ifodalangan yoki ko‘z o‘ngida gavdalanayotgan grafik belgilar bilan solishtiradi. Shu tariqa ko‘p marta analitik-sintetik mashqlarning takroran bajarilishi natijasida nutqiy materialdan foydalanish ko‘nikma va malakalari ishlab chiqiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar so‘zlashuv nutqining shakllanishi F Qodirova fikricha, bolalarda nutqqacha bo‘lgan davr va ilk yoshdagi nutqiy rivojlanish davrining to‘g‘ri aniqlanib, yo‘nalganligiga bog‘liq .⁴² Aksariyat holda bunday bolalar nutqqacha bo‘lgan davrda (gugulash) ona ovozig a befarq bo‘lishlari va bunga kattalar tomonidan «keyinchalik gapiradi» degan munosabat bildirilishi kuzatiladi. Bu esa bolada kattalar nutqiga taqlid qilish kabi jarayonni ham kechiktiradi. Natijada bola atrofdagilardan cheklangan munosabatdaligicha rivojlanadi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolaning tashhisi erta aniqlanib, to‘g‘ri yondashilsa, uning muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik zamin yaratiladi. Respublikamiz miqyosida U.Fayzieva zaif eshituvchi bolalarda savodni egallash jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi asosida bolaning keyingi nutqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratilishini ilmiy tadqiq etgan⁴³. Bundan tashqari I.K.Kislitina, Ye.Ponamaryova va L.Kimlar olib borgan tadqiqotlari XX asr O‘zbekiston surdopedagogikasi fanining rivojida munosib o‘ringa egadir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolarni maktabga tayyorlash

⁴² Qodirova F. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish Ped.fan.nom. ..diss. –T., 2006.-69.b.

⁴³ Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b

oila va maktabgacha ta'lim ausasasining o'zaro hamkorlikda va izchil olib borishga bog'liq. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolarni maktabga tayyorlashning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir. ega . Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatining ba'zi bir tomonlarini yoritib beradi. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy xususiyatlariyb o'rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonida bolalar jismoniy va ruhiy xususiyatlariga individual yondashish katta ahamiyatga ega . Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatining ba'zi bir tomonlarini yoritib beradi. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy xususiyatlariyb o'rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Maxsus o'qitish jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda atrofdagilar og'zaki nutqini qabul qilish malakalari shakllanadi, nutqiy ovoz va nafasdan foydalanish ko'nikmalari ishlab chiqiladi, ayrim tovushlar, so'zlar va ularning birikmalarini talaffuz qilish asosida so'zlashuv nutqiga o'qitishning dastlabki talablari bajariladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga maktabga tayyorlash jarayonida atrofdagilar bilan og'zaki, yozma muloqot qilishni o'rgatishdagi qiyinchilik birorta yordamchi vositaga, masalan, daktil nutqqa ehtiyojni tug'diradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha o'quv – uslubiy metodik, moddiy – texnik bazani mavjud emasligi mazkur sohada korreksion pedagogik ish tizimini yaratish masalalarining dolzarbligini asoslab bermoqda . Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish oila va maktabgacha ta'lim ausasasining o'zaro hamkorlikda va izchil olib borishga bog'liq.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab olimlarning e'tiborini jalb qilganligiga qaramay, bu muammoning yechimi topish , eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalishini tadqiq etish dolzarb masala sanaladi

II BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini eksperimental o'rganish

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental tekshirishlarni o'tkazishda ushbu tamoyillarga tayanish lozim:

- psixologik ta'limni modellashtirish, bola buni hayoti davomida amalga oshiradi (o'qish, o'yin);
- bolaga beriladigan vazifa uning yoshiga va bilimiga tayangan holda bo'lishi kerak;
- tahlil samarali bo'lishi uchun bolaning barcha psixologik faoliyatini ko'rish zarur, o'zining faoliyatiga va natijalariga munosabati, uni bajarish va davomiylik sur'ati va hokazo.

Eksperimentlarni o'tkazish vaqtida bolaning yoshiga e'tibor berish kerak, shu bilan birgalikda bitta yo'nalishda emas, balki bir necha bir-biriga yaqin bo'lgan metodikalarni tanlash kerak. Kuzatishni olib borishda, birinchidan kuzatishni vazifasini va ikkinchidan kuzatilayotgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar haqida oldindan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Ba'zi vaziyatlarda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga, uning faqatgina qobiliyatini baholash uchun tekshirish o'tkazilayotganday qilib his ettirish kerak. Bunday sharoitlarda eksperimentator alohida vazifalarni to'g'ri baholashi mumkin. Topshiriqlarni bajarishda to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd etib qolmasdan, unga yordamlashib yangi bajarish yo'llarini o'rgatish kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qiziqarli bo'lishi uchun vazifalarni soddadan boshlash kerak. So'ngra murakkabroq topshiriqlarga o'tish mumkin, lekin bolada charchash, sustlik kuzatilsa, darhol osonroq topshiriq berish kerak yoki biroz dam oldirish kerak. Psixolog bilan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar stol orqali suhbat qurganidan ko'ra, yonma-yon o'tirib suhbatlashishi bolaga ancha qulaydir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi va

nuqsoniga qarab sharoit yaratish lozim. Psixologik tekshirishda test, savolnomalar o'tkazilishi:

-aqliy rivojlanishini me'yorida rivojlanish bilan solishtirgan holda baholash;

-fikrini o'rganish, shaxsiy motivatsiyasi hamda munosabatga kirishishi o'rganiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ni psixik rivojlanishini aniqlash hamda oliy psixik faoliyat funksiyalarining holatini baholashda aqliy faoliyatning turli jabhalarini: aqliy ishlash qobiliyatini holati, diqqati, idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqining xususiyatlarini o'rganish va yoritish zarur. Zaruriyat tug'ilganda: oilaning ichki va bolaning ota-onasi o'rtasidagi munosabati, tengdoshlari bilan munosabati, o'zini-o'zi baholashi kabilar tekshiriladi.

Aqliy ishlash qobiliyatining holatini tekshirish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy ishlash qobiliyatini tekshirish aqliy ishlash qobiliyatidagi turli kamchiliklarni, bu nuqsonlarning bolani aqliy faoliyati tuzilishiga ta'sirini aniqlashga imkon beradi. Aqliy ishlash qobiliyatining buzilishlari turli xarakterda va darajada namoyon bo'lishi mumkin. Aqliy ishlash qobiliyatini buzilishlarini taxminan yengil ifodalangan, o'rta va yaqqol (qo'pol) ifodalanganga ajratish mumkin. Lekin bunday ajratish taxminiy ekanligini aytish lozim. Chunki u ko'p omillarga bog'liq narsaga bog'liq va psixolog tomonidan kasbiy tajribasidan kelib chiqqan holda ma'lum darajada su'bektiv tarzda aniqlanadi. Namoyon bo'lish darajasidan tashqari, kamchilik xarakterini aniqlash lozim. Aqliy ishlash qobiliyatining buzilishlari turlicha xarakterda bo'lishi mumkin:

a) bir maromda pasayishi (tekshirish davomida buzilishning namoyon bo'lishi taxminan bir xilda bo'ladi);

b) tebranishli xarakterda (tekshirishda aqliy ishlay olishini tebranish kuzatiladi);

v) toliqish xarakterida (tekshirishning oxiriga kelganda aqliy ishlay olishining pasayishi);

g) murakkab (masalan: umumiy pasayishda aqlan ishlay olishning tebranishi);

Aqliy ishlash qobiliyati buzilishining aralash formalari ham uchraydi, ular bilan korreksion ishlarni olib borish uchun, to'g'ri baholash lozim, unda qaysi buzilish turi ko'proq ifodalanayotganini ajratish kerak.

Diqqatni tekshirish Diqqatni tekshirishda psixolog avval eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqatning buzilishi mavjudligini aniqlashi lozim. So'ngra bu buzilishlarning namoyon bo'lish darajasini, ularning faoliyat buzilishlaridagi rolini, kelib chiqishi va xarakterini aniqlashi kerak. Diqqat buzilishlarining namoyon bo'lish darajasini aniqlashda ularning faoliyat jarayoni va uning natijasiga qanchalik ta'sir etganligiga diqqatni qaratish lozim. Ko'pincha diqqatning qo'pol bo'lmagan buzilishlari ishning natijalarida aks etmasada, shunga qaramay ularning mavjudligi ko'pgiga klinik xolatlarning tashxis belgisi sifatida ahamiyatga ega bo'ladi. Diqqatning qo'pol buzilishlarida kuzatilganda, ular boladagi qiyinchilikning asosiy sababi ekanligini yoki ular xarakterning ko'rinishlariga kirishini aniqlash zarur. Diqqatidagi kamchiliklar boshqa psixik funksiyalari faoliyatiga, ayniqsa xotira faoliyatiga ta'sirini bilish lozim (xotiradagi ayrim kamchiliklar diqqatni buzilishiga olib keladi.)

Xotirani tekshirish Diqqatning qo'pol buzilishlarida xotirani tekshirish ko'pincha noto'g'ri hisoblanadi, chunki uning natijalari xotiraning buzilishlarini emas, balki eslab qolish vaqtida diqqatdagi kamchiliklardan dalolat beradi. Xotirani maxsus tekshirishga undagi modal-xos bo'lmagan buzilishlardan shikoyat, anamnezda miya jarohatlarining, tutqanoq tutilishlari va amneziya holatlarining mavjudligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatkich bo'ladi. Xotirani tekshirishda faqatgina uning buzilishlarini emas, balki ularning xarakter va kelib chiqish sabablarini aniqlash zarur. Xotira buzilishlari xarakteriga ko'ra: modal-xos bo'lmagan (barcha turlarini umumiy pasayishi) va modal-xos bo'lgan (ko'ruv, eshituv, verbal, motor kabi alohida turlarining buzilishi) bo'lishi mumkin. Xotira tavsifi mnestik faoliyat sifatida o'zida eslab qolish (surati, xajmi), esda saqlash (sifatli, muddatli), qayta

eslash (to'liq, aniq, ketma-ket), esdan chiqarish (qisman, chuqur, vaziyatli) kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Nutqni tekshirish Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining holati psixolog hamda surdopedagog bilan birgalikda tekshiriladi. Surdopedagog nutqning barcha tomonlarini o'rganadi, psixolog esa nutq o'zining asosiy funksiyalari bo'lgan (ayniqsa nutq buzilishlarida) kommunikativ, boshqarish, bilish funksiyalarini bajarishiga diqqatini qaratadi. Bolaning rivojlanishiga nutq kamchiliklarining darajasi va xarakterini qanday ta'sir etganligini aniqlash muhim. Bolada nutq kamchiliklari aniqlanganda ular bolaning boshqalar bilan muloqotiga, bilish faoliyatiga qanchalik ta'sir etganligi diqqatni qaratish lozim.

Idrokni tekshirish Idrokni tekshirish tekshirilayotgan bolaning holatiga bog'liq bo'ladi. Eshituv idroki avval eshitishi pasaygan yoki shunda taxmin qilinayotgan bolalarda tekshiriladi. Eshituv holati vrach-surdolog va surdopedagog tomonidan tekshiriladi, psixolog ushbu ma'lumotlardan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishiga ularning u yoki bu darajada ta'sirini o'rganadi. Surdolog tekshiruvdan o'tmagan va nutqida kamchiligi bor bolani psixolog o'rganayotganda, bu bolada eshituvini pasayganligini taxmin qilib, uni surdologik tekshiruvga yuborishi kerak. Eshituv funksiyalari to'liq saqlangan, nutqida kamchilikka ega bo'lgan bolalarda ko'pincha nutqni eshitish idroki, ya'ni unga qaratib so'zlangan nutqni tushunish buzilganligi kuzatiladi. Bunda psixolog surdopedagog bilan birgalikda bola nima uchun tushunmayotganligi tekshiriladi. Ko'ruv idrokini tekshirishda bolani ko'ruv agneziyasi mavjudligiga e'tibor berish zarur (predmetli, fazoviy, rang, harf va hokazo). Ko'ruv idrokini tekshirish davomida agar u ko'rishning pasayishi bilan bog'liqligi taxmin qilinsa, uni ko'ruv o'tkirligini tekshirishga yuboriladi. Ko'ruv funksiyalari saqlangan bo'lib, turli agnoziyalar kuzatilsa, sababini aniqlash zarur. Uning sababi aqliy nuqson, po'stloqning lokal buzilishlari hamda po'stloq tonusining o'zgarishlari bo'lishi mumkin.

Tafakkurni tekshirish Tafakkurni tekshirish xususiyati eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Ilk yoshda ko'rgazmali-harakatli tafakkurning holati, maktabgacha yoshda ko'rgazmali-obrazli, maktab yoshida

ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy tafakkur tekshiriladi. Bolani aqliy faoliyat holatini taxlil qilishda uning hamma tomonlarini – motivatsion, operatsion, dinamik hamda tanqidiy fikrlash tomonlarini ko'rib chiqish kerak.

Tengdoshlari bilan munosabatini tekshirish

Tengdoshlari bilan munosabatini buzilishi turli yoshlarda kuzatilishi mumkin. Bunday buzilishlarning eng og'ir holatlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni izolyatsiyalash (ayirish, qo'shmaslik) yoki boshqa bolalar tomonidan qo'shmaslikdir. Tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi malakasi bo'lmasligi ular bilan munosabatga kirishish istagining pastligi yoki (ushbu istakning saqlanganligida) o'zining xulqini boshqa bolalar xulqi bilan kelishtira olmasligi oqibatida doimiy nizolarga olib kelganda hollarda buzilish deb hisoblanishi mumkin. Tengdoshlari bilan munosabatini buzilishining asosiy belgilari o'ta tajovuzkorlik, nizolarga moyillik, dominantlik, bo'ysunganlik, passivlik, boshqacha qilib aytganda aloqada teng bo'lmagan o'rinlarni qabul qilish tendensiyasidir. Psixologik tekshirishning natijalarini tahlil qilishning maqsadi - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik faoliyati bilan har tomonlama tanishishdan iborat. Barcha ma'lumotlarni tahlil qilayotganda, bolani psixologik tavsiflash maqsadida, psixologik tekshirish uchun o'zining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bolaning ota-onasidan nima sababdan konsultatsiyaga kelganliklarini so'rashi kerak. Agar tekshirishdan asosiy maqsad – bolaning rivojlanishiga qarab o'qitishning maqbul sharoitini va darajasini aniqlash bo'lsa, unda avvala tahlil berilib intellektual nuqsonning tuzilishi o'rganilishi lozim. Agarda ota-onaning murojaati va shikoyati sabablari bolaning faqatgina xulqi yoki muloqotiga (aloqaga kirishishi) va xokazolarga tegishligina bo'lsa unda intellekti saqlanganligini (eksperimental tekshirishda) aniqlaganidan so'ng psixologik muammoni yoritish zarur. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari taxlilida quyidagi mezonlarga tayangan tayanish lozim:

- harakatlarining maqbulligi (topshiriqni qanday qabul qiladi);
- topshiriqni bajarish usullari;
- topshiriqni bajarayotganda o'rgatishni qabul qilishi;

-o'zining faoliyat natijalariga munosabati (tanqidiyligi).

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tekshirishga bo'lgan munosabatini e'tiborga olish muhim bo'lib, bu uning motivatsiya doirasi, ehtiyojlari, hissiy-irodaviy va shaxsining xususiyatlari bilan bog'liqdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazishning maqsadi bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan bilim, ko'nikma va malakalarning hajmini, ular tomonidan yangi tushunchalar, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirib olish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularning qaysi bosqichlarda yuzaga kelishini, bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish sharoitlarini aniqlashdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazishni boshlashdan avval pedagog bolaning pedagogik hujjatlarini diqqat bilan o'rganib chiqadi (bolalar bog'chasi yoki maktabdan berilgan tavsif, daftarlar, bolaning mustaqil ishlari, chizgan rasmlari). Bolaga berilgan tavsifni tahlil qilish pedagogik tekshirish sxemasini to'g'ri tuzishga, bolaning individual xususiyatlarini e'tiborga olib unga to'g'ri yondashishga yordam beradi. Agarda tavsifda bola tez toliqadi deb ko'rsatilgan bo'lsa, unga tekshirish vaqtida tez va qisqa vaqtda bajariladigan topshiriqlar beriladi, agar bolada o'quv faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lgan bo'lsa, o'yin holatlaridan foydalanish lozim bo'ladi. Tekshirilayotgan bolalarning daftarlarini o'rganish u yoki bu malakaning rivojlanish dinamikasi, maktabgacha ta'lim dasturini o'zlashtirish jarayonida bola yo'l qo'yadigan xatolari xarakteri, qiyinchiliklari haqida fikr yuritishga imkon beradi. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlarni tahlil qilish tashxis qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, faqatgina tasviriy faoliyat sohasidagi bolaning texnik imkoniyatlari haqidagina ma'lumot bermasdan, balki uning kuzatuvchanligi, tasavvur va qiziqishlari doirasi va haqida tushuncha beradi. Pedagogik hujjatlarni shunday tarzda sinchiklab o'rganib chiqqanidan so'ng defektolog bolani tekshirishga kirishadi. Bola faoliyatining har xil turlarini tahlil qilayotib, pedagog eng avval quyidagi masalalarni aniqlab oladi. Maqsadga

yo‘nalganligi. Turg‘unligi. Ongliligi. Mahsuldorligi. Bolaning ota-onasi, o‘zi bilan suhbatlashish, pedagogik tavsifni o‘rganib biz uning amaliy, maishiy va mehnat faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. Ba‘zi hollarda bolaga topshiriqlar berish mumkin, masalan, paltoni tugmasini qadash, botinkaning iplarini bog‘lash. Bunday topshiriqlarning bajarilishini kuzatayotib pedagog bola motorikasining holati, o‘z faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Bolaning o‘quv faoliyatini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nuqtai nazardan o‘rganish uning bilish jarayonlarini o‘rganish kabi muhimdir. Faoliyatning buzilishi, maqsadga yo‘nalganlikning, turg‘unlik va mahsuldorlikning yetishmasligi, motivatsiyaning rivojlanmay qolganligi (faoliyatga munosabat) intellekt saqlanib qolgan hollarda ham salbiy natijalar beradi. Bolaning o‘quv topshiriqlarini bajarishda maqsadga yo‘nalganligi, o‘qish jarayoni yoki predmetga bo‘lgan qiziqish, qiyinchiliklarni yengish ko‘nikmasi, ko‘rsatma va yordamdan foydalana olishi, o‘z ishini tashkil etishiga diqqatni jalb etish lozim.

Ishlashdagi turg‘unlik, diqqatning tarqalmasligi va toliqmaslik, motivatsiyalarning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

1. Topshiriqni bajarish vaqtida bolaning nutqiy faolligi.
2. O‘z nutqida avvalgi tajribasini namoyon eta olish ko‘nikmasi.
3. Bola eshitayotgan, ko‘rayotgan, o‘qiyotganlarini to‘g‘ri tushunganligi.
4. Bolaning nutqida taqlidiy elementlarning mavjudligi.
5. Nutq bolaning faoliyatida yetakchi rejalashtiruvchi rolni bajaradimi yoki nutq faoliyatdan ajralib qolganmi?

Bolaning o‘yin faoliyati bilan tanishish faqatgina tashxisni aniqlashgagina emas, balki bolaning pedagogik imkoniyatlarini, unga yondashish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. O‘yinchoqlar boladagi tormozlanishni bartaraf etadi. Ba‘zan shunday holatlar ham bo‘ladiki, faqat o‘yinchoqlar orqali bolani topshiriqni bajarishga undash mumkin. O‘yinda bola o‘zining ijobiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Pedagogik tekshirish asosida pedagog-defektolog faqatgina bolaning bilim darajasi haqida xulosa chiqarmasdan, balki u yoki bu qiyinchiliklar nimalardan kelib chiqqanligi, ularning asosida nimalar yotishini tushunib oladi. Tekshirish

natijalarini tahlil qilish vaqtida asosiy diqqat bolaning berilgan topshiriqni mustaqil bajarish qobiliyati, lozim bo'lganda yordamni qabul qilishi va o'zlashtirilgan harakat usulidan o'xshash sharoitlarda foydalanishga qaratiladi. Intellekti me'yoridagi bolalar ularga ko'rsatilgan va tushuntirilgan harakat usulidan boshqa sharoitda ham foydalana oladilar. Pedagogik nazoratdan qolgan, psixik rivojlanishi sustlashgan, analizatorlarida turli nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'limni yetarli darajada o'zlashtira olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida bolani kuzatayotib pedagog-defektolog uning ko'rsatmani tushunish xususiyatlari va faoliyati xarakterini, xulqini ko'zdan kechirib borish, topshiriqqa qiziqishini, olingan natijalarni to'g'ri baholay oladimi, maqtov va tanbehga qanday munosabatda bo'lishiga e'tibor berishi lozim. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga pedagogik va korreksion ta'sirning samarali natija berishi ma'lum ma'noda, eshituv funksiyasining holatini o'z vaqtida o'rganishga bog'liq. Shuning uchun xar qanday malakali surdopedagog eshituvni tekshirish metodlarini bilishi kerak. Audiologiya eshituv funksiyasini tadqiq qilish metodlarining ikki asosiy guruhiga ega: sub'ektiv metodlar – tekshiriluvchining sub'ektiv ko'rsatkichlarini qayd etishga asoslanadi; ob'ektiv metodlar – uning natijalari tekshiriluvchining xohish va irodasiga kam bog'liq bo'ladi. Psixoakustik yoki sub'ektiv metodlar oddiyligi tufayli ko'proq qo'llaniladi. Biroq, ularning natijasi tekshiriluvchining psixologik tayyorligi, berilayotgan signallarga adekvat yondashish xohishga va boshqalarga bog'liq. Bundan tashqari, ob'ektiv natija olish, kerak bo'ladigan holatlar, vaziyatdan qat'iy nazar ham bo'ladi, masalan, eshituv nogironlikni ekspertizasida kasbiy yaroqlilikni baholashda. Sub'ektiv metodlar kichik bolalarni tekshirishda, shuningdek, intellektual va psixik nuqsonlarga ega bolalarni tekshirishda qo'llanilmaydi. Bolaning umumiy rivojlanishi uchun eshituv analizatorining normal funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Eshitishning holati bolaning shaxs sifatida kamol topishida psixologik va nutqiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Uning kelajakdagi taqdiri ko'pincha eshitish nuqsoni qaysi yoshda kelib chiqqaniga-nutq shakllanishidan oldinmi yoki bolada ayrim lug'at boyligi va nutqiy muloqot tajribasi borligida sodir bo'lganligiga bog'liq. Shuning uchun qanchalik erta eshituv buzilishi

aniqlansa, va nuqson darajasi qayd etilsa, shunchalik erta reabilitatsiya choralari ko‘riladi, bolaning umumiy rivojlanishiga eshituv nuqsoni shunchalik kam ta‘sir etadi. Eshituvni reabilitatsiya qilish natijalariga nutqning rivojlanish darajasidan tashqari eshituvning buzilish darajasi va eshitish nuqsonidan keyingi bolaning rivojlanish sharoiti ta‘sir etadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar orasida eng muhimi eshituv analizatori darajasi hisoblanadi. Shuning uchun uni aniqlash va baholash muhimligi ortadi – eshitish nuqsoni darajasini ko‘rsatuvchi atamalar ahamiyati ham muhimdir (karlik, zaif eshituvchilik). Kar va zaif eshituvchi bolalarni samarali o‘qitish uchun ularning har bir kategoriyasini psixologik xususiyatlarini bilish va ularning asosiy rivojlanish yo‘llarini tasavvur eta olish kerak. Ular bilan olib boriladigan maxsus pedagogik ishning ilmiy asoslanishiga bo‘lgan talab ushbu bolalarning har bir guruhiga tegishli xususiyatlarni psixologik jihatdan chuqurroq o‘rganish kerakligini ko‘rsatdi. Bolaning eshituv funksisini o‘rganishda katta rol ni akustik idrok sharoitini o‘zgartirib turish va ushbu o‘lchovlarni idrok etish jarayoniga ta‘siri xaqida kerakli tartibdagi hisob-kitobi o‘ynaydi. Bola nutq materialini qaysi sohaga tegishli ekanini bilsa, shuningdek, umumiy ma‘nodan aynan nima xaqida gapirganini topa olish imkoniyati tug‘ilsa, eshitishni ajratish (differensirovka qilish) nisbatan yaxshi amalga oshadi. Pedagogik maqsadlarda bolaning nafaqat so‘zlarini, balki tovushlarini va tovush komplekslarini ham idrok etishni o‘rganish muhimdir. Eshitishi pasaygan bolalar turli tuman tovushlarni idrok etishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun bolaning eshituv imkoniyatlarini tekshirishda bir-biridan turli xususiyatlari bilan farqlanuvchi tovushlarni differentsiatsiya qilishlarini aniqlashga yordam beruvchi og‘zaki materiallardan foydalanish tavsiya etiladi (jarangli va jarangsizlar, shivillovchi va sirg‘aluvchi kabilar). Pedagog har bir zaif eshituvchi bolaning eshituv imkoniyatlarini aniq bilishi kerak, chunki faqatgina shunda to‘g‘ri, mos ovoz kuchaytiruvchi apparatni tanlash mumkin. Bola bilan qancha masofada muloqot o‘rnatish mumkinligini aniqlash, bola nutqni egallash chog‘ida duch keluvchi qiyinchiliklarni baholash imkoniyati tug‘iladi. Pedagog har bir bolaning ko‘ruv qobiliyati holatini ham aniq bilishi muhim, bu esa ishtirokchilar bilan ishni tashkil

etish maqsadiga mosdir. Xuddi eshitishi haqidagi ma'lumotlarni olganidek, ko'rish qobiliyati haqidagi ma'lumotni ham mutaxassis shifokordan oladi va nihoyat o'z tekshirishlarini qo'shadi. Bunday tekshirish har tomonlama to'liq, uzoq muddatli bo'lishi kerak. Maqsadga muvofiq tarzda material yig'ish, turli yo'llarni qo'llash, olingan ma'lumotlarni to'liq o'rganish kerak. Bolaning aqliy rivojlanish ko'rsatkichi bo'lib faqatgina uning oldiga qo'yilgan topshiriqning yechimi emas, balki topshiriqni bajarishda pedagog yordamidan qay darajada foydalangani ham hisobga olinadi. Ma'lumki, aqliy nuqsonga ega bola normal bolaga nisbatan cheklangan ravishda qabul qiladi va egallagan malakasini yangi vaziyatda qo'llay oladi. Shuning uchun pedagogning berilgan topshiriqni bola tomonidan bajarish faoliyati va natijasiga ko'rsatgan yordami uning aqliy rivojlanishini yaxshiroq xarakterlashga yordam beradi. Alohida yordamga muxtoj bolalarni pedagog o'rganish dasturiga, shuningdek, har bir bolaning shaxs sifatlarini turli tomondan o'rganish olingan ma'lumotlar va uning turli faoliyat xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ham kiritiladi.

1. Bolaning o'quv faoliyati xarakteristikasi o'zlashtirishlik xarakteristikasi (qanday baholari mavjud, qoniqarsiz baholarning asosiy sabablari) ahamiyatli xatolarning analizi (bola turli fanlarni o'zlashtirishda yo'l qo'yuvchi xatolar).

2. Umumiy aqliy rivojlanish (ong-bilim darajasi, atrof-muhitda mo'ljal olishi, tafakkur faoliyatining oliy formalari-umulashtirish va mavxumlashtirishning buzilishi).

3. Bola nutqi rivojlanishi va xolati xarakteristikasi. Bola nutqini har tomonlama tekshirish o'z ichiga uning turli tomondan ko'rib chiqishni va rivojlanish yo'llari, o'sishini aniqlashdan iborat.

4. O'qishga layoqatliligi (tezlik, aniqlik, va idrok etish kengligi, diqqatni taqsimlash va ko'chirish, diqqatning barqarorligi, kuzatuvchanligi, xotirasi, o'quv materialini tezlik bilan o'zlashtirish: fikrlovchanligi, qiziquvchanligi, fikrlashning o'ziga xosligi).

5. O'qishga munosabati (o'qishga qiziquvchanligi yoki befarqligi, qiziquvchanligining darajasi, o'qishga bo'lgan mas'uliyati sezishi; tirishqoqligi; baholarga munosabati).

6. Tashkillashganligi (sinfda, uy vazifalarini tayyorlashda, pedagog topshiriqlarini bajarishda).

7. O'quv» bilimi (mustaqil ishlash malakasi, boshlangan ishning oxiriga yetkazilishi; o'quv faoliyatida samarali foydalanuvchi usullari; ishchanligi, bolaning o'z nuqsoniga moslashganligi-bajariluvchi harakatlarning o'zgarish yo'llari, o'zini boshqarishi).

8. Mehnat faoliyati xususiyatlari (mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat malaka va ko'nikmalarning egallanganligi, mehnatda tashkillashganligi va tartibliligi, uzoq muddatli mehnat qilishga odatlanganligi, o'zgarar mehnatini qadrlashi).

9. O'yin faoliyati xususiyatlari.

10. Bolalarning individual qiziqishlari va qobiliyatlari.

11. Xulqining umumiy bahosi (o'zini tinch tutishi, bosiqqligi yoki o'ta xarakatchanligi, qo'zg'aluvchanligi yoki o'ta shalpayganligi, o'tira olmasligi, kam harakatliligi).

12. Maktabgacha ta'lim muasasasi tartibini bajarishi (bajarish darajasi, yo'l qo'yiluvchi buzilishlarning sabablari).

13. Kattalar talablarini bajarishi (chin dildan bajaradi, majburlash ostida bajaradi, ko'pincha bajarishdan bosh tortadi).

14. Jamoaviy xulq-atvori va faolligi xarakteristikasi (yurti hayotiga qiziqishi, jamoa topshiriqlarini qaysilarini va qanday bajaradi; yig'ilishlarda, devoriy ro'znomalar chiqarishdagi ishtiroki).

15. Xamkasblari bilan bolaning o'zaro munosabatlari (jamoadagi o'rni, do'stlariga munosabati, jamoadagi o'rnidan qoniqadimi yoki qanday o'ringa ega bo'lishni xohlar edi).

16. Ishtirokchilarning xarakter xususiyatlari (yaqqol ajraluvchi ijobiy va salbiy xarakter qirralari, xos bo'lgan kayfiyat, kayfiyat o'zgarishlariga sabab nimada).

17. Bolaning maktab internatga munosabati (uning yordamidan faxrlanadimi, undan nimani alohida baholaydi, pedagoglar jamoasiga munosabati).

18. Bolaning oila bilan o'zaro munosabati (ota-onalarning qiziqishlari va kasblari, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bolaning ota-onasi va oilaning boshqa a'zolari o'zaro munosabati; oilada bolaga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir etish choralari).

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish o'rganishning turli psixologo-pedagogik metodlaridan foydalanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-internatlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni tizimli ravishda maqsadga yo'nalib o'rganish-pedagogik kuzatuv sanaladi. Kuzatishning vazifasi bo'lib, dalillar yig'ish, ularni tizimlash va taxlil qilish sanaladi. Kuzatuvchi bola faoliyatini kuzatadi va ushbu kuzatuvlar salbiy va ijobiy dalillarni yig'ish imkonini beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyati mahsulotlarini o'rganish metodi ularning bilim va malakalari darajasini aniqlashda muhimdir. Bolaning chizgan rasmlari, qog'oz va plastlindan yasalgan buyumlari tahlil qilinadi. Faqatgina yakuniy natija emas, balki bajarish jarayoni ham kuzatilib, yo'l qo'yilgan xatoliklar va qiyinchiliklarni yechishdagi harakatlar tahlil qilinadi. Eshituv funksiyasi buzilganida psixologo-pedagogik tekshiruvga murojaat qilish, tekshiruv ishlarini aniq o'yin materiallari yordamida olib borish kerak (matryoshkalarni yoyish va yig'ish, berilgan namuna asosida tayoqchalarni qo'yib chiqish, piramida aylanalarini sanash malakasi, buyumlar soni haqidagi tushunchalarini shakllantirish). Psixologo-pedagogik tekshirish paytida jadval va rasmlardan keng foydalaniladi. Jadval va rasmlar qo'llanilishi chog'ida kar bolalar berilgan topshiriqlarni imo-ishora va daktil nutqi yordamida bajaradilar. Keng tarqalgan metodlardan yana biri so'rov metodidir. So'rovni o'tkazish paytida tadqiqot vazifasiga mos keluvchi savollarning aniq bo'lishi talab qilinadi. So'rov metodi ishtirokchilarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, yo'nalganliklarini aniqlashga,

o'rganilayotgan hodisalarni chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan suhbat tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarni olishda qo'llaniladi. Suhbatning samarasi tabiiy psixologik muhit yaratish, tadqiqotchining tekshiriluvchi bilan muloqot o'rnatish olish malakasiga bog'liq bo'lib, pedagog maqsadga yo'nalgan savollarga oldindan tayyorlanishi kerak. Suhbat mazmuni bayonnomaga qayd etiladi. Pedagogik hujjatlarni (dars konspektlari, sinfdan tashqari ishlar konspektlari, o'quv-tarbiyaviy jarayon rejalari) o'rganish maktabda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagoglar jamoasi qo'lga kiritgan natijalar haqida tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi. O'quvchilar shaxsiy hujjatlarini, ularni psixologo-pedagogik xarakterini, yakka mashg'ulotlar kundaligini o'rganish har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari haqida va muhim ob'ektiv ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi saqlangan barcha qolgan analizatorlarni maxsus ta'lim sharoitida qo'llash asosida yotadi. Faqatgina surdopedagog yordamida ko'rish idroki, taktil-vibratsion sezgi va kinestetik his qilishni jalb qilish mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning ijtimoiy muhiti, oilada o'tkaziladigan ishlar xarakteri nafaqat bolaning butun rivojlanishiga, balki muloqot qurolining shakllanishiga ham ta'sir etadi. Qo'llaniladigan u yoki bu metodlarni tanlash va ketma-ketligini o'rnatish tekshiruvchining yosh va individual xususiyatiga bog'liq. Tekshirish chog'ida o'xshash xarakterdagi topshiriqlar, yordam variantlari, ta'lim elementlarini qo'shish muhimdir, ular orqali bolaning ko'rsatilgan faoliyat yo'llarini boshqa faoliyatga ko'chirish qobiliyati namoyon bo'ladi. Topshiriqlar verbal va noverbal bo'lishi kerak.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani tekshirish chog'ida quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olish muhimdir:

1. Tadqiqot qilishga (tekshirishga) bolaning xisssiy reaksiyasi

Xayajonlanish – yangi sharoit va notanish odamlarga nisbatan tabiiy reaksiya. Bunda odatdagidan ko'ra quvnoqlik kuzatilishi kerak.

2. Topshiriq maqsadi va ko'rsatmasini tushunish. Bola ko'rsatmani oxiriga qadar eshityaptimi, oldinroq tushunishga xarakat qilib, keyin ishga kirishyaptimi?

Ko'rsatmaning qanday tipi bolaga tushunarli: og'zaki yoki og'zaki va ko'rgazmali namoyish bilan?

3.Bajarish chog'ida faoliyat xarakteri. Topshiriq va qiziqishning turg'unligi va mavjudligi, bola faoliyatining maqsadga yo'nalganligi, ishni oxiriga yetkaza olish malakasi. Diqqatni harakatlarni to'g'ri va ratsional bo'lishi, ish jarayonida diqqatning jamlanganligiga qaratish kerak. Bolaning umumiy ish qobiliyati hisobga olinadi. Yordamdan foydalana olish asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib sanaladi. Bu qobiliyat qanchalik yaqqol namoyon bo'lsa, bola o'qitilishga shunchalik layoqatli.

4.Ish natijasiga reaksiya ko'rsatish. O'z faoliyatiga tanqidiy baho berish, adekvat xissiy reaksiya bo'lib (omadda quvonch, omadsizlikka hafalik), bola vaziyatni to'g'ri tushunayotganidan dalolat beradi.

Suhbat metodi. Suhbat tarzidagi muloqot o'zining-o'ziga xususiyatlariga ega, uni hech qanaqasiga so'roa yoki anketa to'ldirish bilan almashtirish mumkin emas.Suhbatni quruq savol-javob tarzida o'tkazish tavsiya etilmaydi, u o'yin jarayonida, bola tomonidan qiziqarli buyum yoki rasmni ko'rish chog'ida ham o'tkazilishi mumkin.

Suhbat tadqiqotning keyingi o'tkazish bosqichlarida katta ahamiyat kasb etadi, u tekshiruvchiga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'onishda va topshiriqlarni bajarishga to'g'ri munosabatni ta'minlashda qo'l keladi. Suhbat tekshiruv rejasini tuzish imkoniyatini berib, bu holatda nimalarga diqqatni qaratish kerakligini aniqlashga yordam beradi.Suhbat mazmuni asosan bolaning atrof olamida mo'ljal olish xususiyatlarini aniqlashdir.Suhbatning xarakteri bevosita bola bilan muloqot xarakterida bo'lishi kerak. Savollar mazmuni, ketma-ketligi va shakli bola javoblariga ko'ra, reaksiyalariga, umumiy holatiga (hafaligi, hozirjavobligi, so'lg'inligi, qo'zg'aluvchanligi) ko'ra o'zgarib turadi. Bola bilan suhbatni komissiyaning faqatgina bir a'zosi o'tkazadi – komissiyaning bir qancha a'zolari bilan so'rov o'tkazish qat'iy man etiladi.To'g'ri diagnoz qo'yishda suhbatning ahamiyati. Suhbatning to'g'ri o'tkazilishi bola shaxsining va uning rivojlanishi haqida ayrim tasavvurlarni beradi. Suhbat orqali bola hayotida o'qish faoliyatining o'rni qay darajadaligini, o'z qiyinchiliklarini tushunyaptimi yoki yo'qmi, o'z ishi va

xulqini tanqidiy baholay oladimi kabilarni bilib olish mumkin. Suhbat chog'ida irok etishning qaysi tomonlarini chuqurroq tekshirish kerakligini aniqlash mumkin. Shuning uchun suhbat bola hayotining ayrim psixik tomonlarini maxsus o'rganish va nisbatan ahamiyat berish kerakligini aniqlashtiradi. Suhbatdan tashqari, bola uchun qiyin bo'lmagan ayrim faoliyat turlaridan ham foydalanish mumkin. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola shaxsini tekshirish metodlari-inson shaxs sifatlarining psixologik namoyon bo'lish yo'llarini o'rganish va xususiyatlarining o'zaro aloqasidir. O'tkazilish shakli va sharoitiga ko'ra: eksperimental va eksperimental bo'lmagan (biografiyalar tahlili) labarotor va klinik, bevosita va bilvosita, tadqiq qiluvchi va tekshiriluvchi (psixo-dagnostik) turlarga bo'linadi. Shaxsni tikshirish metodlarini ajratish mazmuni bo'yicha shaxs psixologiyasi predmeti interegatsiyasi tamoyillari bilan belgilanadi. Ko'rib chiqilayotgan aspektning namoyon bo'lishiga ko'ra shaxsni tadqiq qilish metodlari quyidagilarga bo'linadi.

1. Individual.

2. Ijtimoiy faoliyat ob'ekti va shaxslararo munosabat tizimi.

3. Boshqa insonlarda ideal namoyon bo'lishlilik.

Birinchi aspektga ko'ra shaxsni tadqiq qilish metodlari sub'ektiv va ob'ektiv tuzilishida mo'ljall olishga bo'linadi. Sub'ektiv mo'ljall olish loyihaviy va psixosemantik metodi orqali namoyon bo'ladi, ular individual, ongning-ma'no va ahamiyatning asosiy xarakteristikasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ob'ektiv mo'ljall olish esa shaxsning nazariy jihatdan asosiy qirralarini shaxsiy so'rovlardagi tasavvurlarni, shaxslararo idrok shkalasini individning o'qitilishi va intellektual sifatleri rivojini baholashni individning psixologik parametrlarini qator baholash yo'llari munosabatini tushunish kerak. Sub'ektiv va ob'ektiv tadqiqotlarning shaxs, shakllanishi faoliyatida turg'un va o'zgaruvchi faoliyat yuzaga kelishida o'zaro bog'liqlik seziladi (Shaxs shakllanishini o'rganish va genetik metodlari, vaziyatdagi faolligi kabilar). Shuningdek, guruh va jamoalarda shaxsni tadqiq qilishning ijtimoiy-psixologik metodlari qo'llaniladi (sotsiometriya, real xulqning o'rganish yo'llari va boshqa). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola tarixiy jihatdan insoniyat

rivojini aks ettiruvchi tayyor amalga oshiruvchi funksiyalar organlari bilan tugʻilmaydi, balki hayoti davomida tarixiy tajribalarni egallash natijasida rivojlanadi. Fikrlash operatsiyalarining shakllanishi nisbatan murakkab xisoblanadi, shuning uchun u ijtimoiy koʻrib chiqishni talab qiladi. Boshlangʻich maktab taʼlimida oʻzaro taʼlim, tarbiya va bola rivojlanishi jarayonlari orasida bogʻliqlik namoyon boʻladi. Taʼlim va tarbiya bolaning psixik rivojlanishida maʼlum ahamiyatga ega, oʻsish esa oʻz navbatida taʼlim olishga taʼsir etadi.

Taʼlim jarayonida pedagog bolalarga ayrim berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda egallangan psixologik rivojlanishga tayanib bajarishlarini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga nisbatan qiyin vazifani bajara olmayotgan bola pedagog yordamida bajarish holatiga tushadi (qoʻshimcha tushuntirish, koʻrsatish, yoʻnaltiruvchi savol). Bu bola imkoniyatlarining ikkinchi darajasi boʻlib, psixologiyada rivojlanishning yaqin zonasini olgandir. Shuning uchun oʻqitish jarayoni nafaqat jadal rivojlanish darajasiga emas, yaʼni shakllangan psixologik funksiyalarga, balki uning imkoniyatlariga, shakllantirish funksiyalariga, yaʼni yaqin rivojlanish zonasiga ham tayanish kerak. Taʼlim berish orqali yaqin rivojlanish zonasini rivojlangan zonaga aylantirish lozim. Bunda bugun yordam bilan bajarilgan topshiriqni ertaga mustaqil bajarishi kerak. Taʼlim va rivojlanish orasidagi ikki bogʻliqlik ham shundan iborat. Taʼlim va rivojlanish xilma-xil bogʻliqlikka ega boʻlsa ham, yaqin rivojlanish zonasiga tayangan taʼlim samaraliroq boʻladi. Taʼlim va rivojlanish munosabati, rivojlanishdan koʻra taʼlimning oldinroqda yurishi, ikki rivojlanish darajasi haqidagi nazariy asos taʼlim nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatni egallaydi. Ushbu xulosalar buyuk psixologlardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan yoritilgan. L.S.Vigotskiyning xulosalari L.V.Zankov boshchiligidagi bir qator ilmiy ishlarda ham oʻz tasdigʻini topgan. Tadqiqotchilar oʻqish jarayonini shunday tashkil etdilar, ishtirokchilar rivojlanishining umumiy darajasi maksimal darajada oshsin. Ushbu jarayonda ular alohida eʼtiborni aniq-xissiy faoliyatni idrok etishga, bogʻlanishga qaratdilar. Diqqatni eng koʻp jalb qilgan narsa bola rivojida mavhum tafakkur bolani oʻrab turgan yaqin predmet va faoliyat orasida munosabat oʻrnatish, shuningdek, unda amaliy harakatlarning shakllanishidir. Taʼlim va

rivojlanish bosqichlarining o‘zaro shartlanganligi hamda bog‘liqligi u yoki bunday rivojlanish nuqsonlariga ega bolalarga ta’lim berish qiyinchiliklarini tahlil qilishda ko‘rinadi. Agar bolada bir necha fanlarni o‘zlashtirishda, shuningdek, xulqida qiyinchiliklar yuzaga kelsa, pedagog avvalambor mana shu qiyinchilik va nuqsonlar tahlil qilishi va aniqlanishi lozim. Dunyoning turli, mamlakatlarida ming-minglab bolalar o‘zlarining intellektual rivojlanishlarida susayishni aniqlaydilar, boshqa barcha munosabatlarda ular o‘z tengdoshlaridan deyarli farqlanmaydilar. Ushbu o‘qish jarayonida yetarli natijalarni ko‘rsatishga qobiliyat ko‘rsatmasalar ham boshqa sharoitlarda normaga muvofiq keladilar. Agar ushbu bolalarni ular uchun ma’qul sharoitga tushirsalar va ularga nisbatan o‘qitishning maxsus metodlari qo‘llanilsa, tajribaning ko‘rsatishicha, ko‘p holatlarda ular omadga erishishlari va ayrim paytlarda o‘zlarining orqada qolishlariga to‘la barham berishlari mumkin. Psixik jarayon – jonli, haddan tashqari plastik (egiluvchan), to‘xtamas, hech qachon boshidan to‘laligicha vazifalanmagan, shuning uchun shakllanuvchi va rivojlanuvchi, u yoki bu mahsulot va natijalarni yuzaga chiqaruvchidir. Psixik holat yoki obrazlar, tushunchalar, xis-tuyg‘ular yechilgan yoki yechilmagan topshiriqlar va hokazodir. Psixik diagnostikaning muhim elementi bo‘lib har bir alohida holatda tekshiriluvchining xulqida ushbu namoyishlar aniqlanishi, ularning sabab va oqibatlarini qandayligi sababini bilish muhimdir. Psixologik tekshirish o‘tkazishda bolaning faqatgina yoshiga emas, balki uning intellektual va jismoniy imkoniyatlariga bog‘liq holda diagnostik metodlarni tanlash zarur. Ushbu metodikalarni bajarish natijalarini baholashda harakatlarning o‘rinliligi (topshiriqni qanday qabul qiladi), topshiriqni bajarish usuli, bajarish jarayonini o‘rganishi va o‘z faoliyati natijasiga munosabatini e’tiborga olish zarur. Birinchi parametr tavsifida bola berilgan topshiriqni hohish bilan bajarayotganligi, ko‘rsatmani tushunganligi, harakatlarini o‘rinliligiga e’tibor qaratish muhim. Topshiriqni bajarish turlari orientirlash faoliyati darajasidan dalolat beradi. Topshiriqni bajarishning to‘rt daraja yoki turi ajratiladi: Xaotik harakatlilar. Bu holda bola predmetlarning xususiyati va sifatini ajrata olmaydi (tuzilishi, kattaligi, rangi...) boshqa variantlarga maqsadsiz o‘tadi, ko‘pincha kuch ishlatadi. Maqsadga yo‘naltirilgan taxminlar yoki xato

taxminlar orqali, bola predmetning xususiyatlarini anglay olmaydi, lekin bajarishda xatolarini yo'qotib barcha variantlardan foydalanib ko'radi,.Amaliy qo'llab ko'rish. Bola predmetlarning xususiyatlarini ajrata boshlaydi, lekin ko'rgazma- obrazli ravishda solishtira olmaydi va amaliy qo'llab ko'rishga kirishadi.Ko'rish orqali solishtirish. Bola predmetlarning xususiyatlarini tayanib topshiriqni hech qanday taxminlarsiz darrov bajaradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganishni quyidagi metodikalar asosida amalga oshirishni rejalashtirdik.

«Segen taxtasi» metodikasi »

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: shakllar andozasi chuqur o'yilgan taxta (4 variantli) va shu chuqurchalarga to'g'ri keladigan shakllar.

O'tkazish texnikasi: bolaga shakllar joylashtirilgan taxta ko'rsatiladi va ko'zining oldida taxta shunday ag'dariladiki, ichidagi shakllar stolning o'rtasiga tushuriladi. Ko'rsatma beriladi: a) so'z orqali («Qara menda har xil shaklli taxta bor, men shakllarni to'kaman, sen esa joyiga solasan») yoki b) imo-ishora orqali (eshitishi va nutqi buzilgan bolalarga).

Agar bola topshiriqni tushunmasa va bajarishga kirishmasa, unda eksperiment o'tkazuvchining o'zi 1-2 shakllarini solib ko'rsatib berishi kerak. Noo'rin harakatlarda yana yordam ko'rsatiladi: «Yaxshilab qara, ushbu shaklni qaerga qo'yish kerak». Agar samara bermasa, unda bolaning diqqatini taxtadagi shakllarga va qo'lidagi shaklga qaratiladi. Agar bola noo'rin harakatlarda davom etsa, unda chamalab, solib ko'rish taklif etiladi.

Bajarish me'yori:

3 yoshda (variant-1) maqsadga yo'naltirilgan urinishlar va amaliy chamalab ko'rish orqali.

3,5 yoshda (variant-1) ko'rib mo'ljal olish va amaliy chamalab ko'rish orqali.

4-5 yoshda (variant – 2-3) ko‘rib mo‘ljall olish va amaliy chamalab ko‘rish mumkin

5-6 yoshda (variant – 3-4) ko‘rib solishtirish va amaliy chamalab ko‘rish mumkin.

«Piramidani ajratish va yig‘ish» metodikasi

Maqsad: kattalikni farqlash darajasi, ko‘rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: 4-6 xalqali piramida.

O‘tkazish texnikasi: bolaga piramidani ajratish, so‘ngra yig‘ish taklif etiladi. Agar bola bajarmasa uni qiziqtirish uchun piramidani katta odamning o‘zi yig‘ib beradi. Qiyinchilik tug‘ilganda bolaning ko‘zi oldida piramidani yig‘ish va yoyish davomida quyidagi so‘zlarni: «Avval katta xalqachani, endi sal kichikroq, yana ham kichikrog‘ini va eng kichikinasini» deb o‘rgatish mumkin. So‘ngra bolaga xalqalarning katta-kichikligiga qarab piramidani yig‘ish va ajratish taklif etiladi.

Bajarish me‘yori: bola topshiriqni bajarishda quyidagi yo‘llardan foydalanadi.

3-4 yoshda – maqsadga yo‘naltirilgan urinishlar va amaliy chamalab ko‘rish orqali

4-5 yoshda – ko‘rib solishtirish orqali.

«Kesma rasmlar» metodikasi

Maqsad: idrokning to‘liqliligini rivojlanish darajasini, ko‘ruv-fazoviy analiz va sintezini, ko‘rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: to‘liq va kesma rasmlarning to‘plami. Rasmlar 3 taga, 4 qismga kestlgan.

O‘tkazish texnikasi: eksperiment o‘tkazuvchi kesma rasm qismlarini ko‘rsatib, unda qanday predmet tasvirlanganligini aytmaydi, ko‘rsatma beriladi: a) so‘z – ishorali shaklda: «rasmni to‘liq qilib yig‘ib ber» yoki b) imo-ishorali. Agar bola topshiriqni tushunmasa, to‘liq rasm shakli ko‘rsatiladi va ko‘rsatma takrorlanadi yoki taxlanib va yana rasm qismlari ajratiladi.

Agar bu yordam samarasiz bo'lsa, bolaga rasm qismlaridan to'liq rasmni yig'ish ketma-ketligi taxminiy yo'naltirish orqali o'rgatiladi. Shundan so'ng bolaga ushbu rasmni yana bir bor yig'ib berish so'raladi va boshqa variant taklif etiladi.

Bajarish me'yori: 3 qismli kesma rasmlarni:

3-4 yoshda amaliy chamalab ko'rish orqali.

4-5 yoshda ko'ruviga tayanib.

4-6 qismli rasmlar:

3-4 yoshda maqsadga yo'naltirilgan urinishlar.

4-5 yoshda amaliy chamalab ko'rish orqali.

5-6 yoshda ko'rib solishtirish orqali

«Qatorga qo'y» metodikasi

Maqsad: kattalikni idrok etish darajasini, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirish.

Jihoz: olti qismli matreshka.

O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi bolaning ko'zi oldida matreshkalarni ajratib, ularni bir-biriga mosi bilan qo'yib chiqadi. Keyin matreshkalarni katta-kichikligiga qarab, orasida bir xil interval saqlagan holda qo'yib chiqadi. Bundan so'ng tekshiruvchi matreshkalar qatorini ekran bilan bekitib, bolaga ko'rsatmagan holda bittasini olib qo'yadi, so'ngra ekran olinib bolaga matreshkani joyini topib qo'yish so'raladi.

Agar bola topshiriqni bajara olmasa, unga yordam ko'rsatiladi. Avval so'z ko'rsatmasi orqali: «Yaxshilab qara, ushbu matreshka qaerda turishi kerak?» yoki imo-ishora orqali matreshkani joyini topish so'raladi. Agar bu yordam samara bermasa, unda o'rgatuvchi yordam beriladi: har bir keyin turgan matreshka o'zidan oldinda turganidan kichikroq ekanligi tushuntiriladi. O'rgatilgandan so'ng, bolaga matreshkaning joyini topib qo'yish topshirig'i yana 2-3 marotaba beriladi.

Bajarish me'yori:

4-5 yoshda maqsadga qaratilgan urinishlar va amaliy chamalashga tayanib

5-6 yoshda amaliy chamalash, ko'z bilan solishtirish.

6-7 yoshda ko‘z bilan chamalab bajarish.

«Namunaga qarab qurish» metodikasi

Metodikaning yo‘nalishi: shakl haqidagi tasavvurlarning, ko‘ruv-fazoviy analiz va sintezning (shakllarni alohida elementlarga ajratish va ulardan bir butun shaklni sintezlash) shakllanganligini tekshirish

Jihoz: 20 ta sanoq cho‘plari.

Bajarish texnikasi: 3-4 yoshli bolalarga verbal (nutqiy) ko‘rsatmaga tayangan holda geometrik shakllar (uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat) qurish va ularni har birini nomini aytish so‘raladi.

5-6 yoshli bolalar uchun xotirasiga tayanib cho‘plardan murakkabroq shakllar (uycha, bir-birini ustiga qo‘yilgan romblar, narvoncha va hokazo) yasashi taklif etiladi.. Pedagog shirma orqasida biror shakl yasaydi va bolaga ko‘rsatadi, so‘ngra buzib tashlaydi yoki bekitib qo‘yyadi, bola esa xotirasi bo‘yicha shaklni qurishi kerak. Qurgan shaklini so‘z bilan aytib berishi zarur.

Bolada qiyinchilik kuzatilsa, unga shaklni qurish yo‘li yoki shaklni yana bir bor ko‘rsatish orqali yordam beriladi. Agar bu yordam ham samara bermasa, bolaning ko‘zini oldida qurib ko‘rsatiladi va boladan namunaga qarab topshiriqni bajarish so‘raladi.

Bajarish natijalarining taxlili:

3-4 yoshda ko‘z bilan chamalab.

4-5 yoshda amaliy chamalash, namunaga qarab bajarish.

5-6 yoshda amaliy chamalash va ko‘rib solishtirish.

«Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasi

Maqsad: mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasini (umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyati, umumlashtiruvchi tushunchalarning shakllanganligini) tekshirish.

Jihoz: o‘yinchoqlar, kiyimlar, hayvonlar, o‘simliklar, idish-tovoqlar, mebellar, transportlar va hokazolar tasvirlangan predmetli rasmlar.

O‘tkazish texnikasi: bolaga rasmlar to‘plami beriladi va taklif etiladi: «Ushbu kartochkalardan bir-biriga mosini topib, stol ustiga qo‘yib chiq». 10-15

kartochka qo'yib chiqilgandan so'ng so'raladi: «Nima uchun ushbu kartochkalar bu qatorda? Bular esa nimaga boshqada?» (bolaning umumlashtirish ko'nikmasi va harakatlarini so'zda ifodalay olishi aniqlanadi). Yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilanadi va kartochkalarni taxlash prinsipi tushuntiriladi («idish-idishga, hayvonlar-hayvonlarga qo'y»). So'ngra bolaga topshiriqni davom ettirish taklif etiladi.

Agar bola topshiriqni qabul qilmasa, uni klassifikatsiyalash usuliga o'rgatiladi. Boladan tekshiruvchi nima uchun ushbu kartochkalarni bu qatorga qo'yish kerakligini, boshqalarini bu qatorga qo'yish lozimligini tushuntiradi, so'ngra o'zi mustaqil bajarishini taklif etadi.

Bajarish me'yori:

5 yoshli bolalar topshiriqni harakat asosida, umumlashtirish usulini funksional darajada aniqlab bajaradilar. 6 yoshdan boshlab mavhum kategoriyalarni qo'llaydilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish quyidagi mezonlar asosida baholandi:

Topshiriqni to'g'ri bajardi: **-3 ball.**

Topshiriqni surdopedagog yordami asosida bajardi: **2 - ball.**

Topshiriqni bajara olmadi: **1- ball.**

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari tahlili

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish ishini olib borishdan oldin shu mavzuga oid adabiyotlar, muammoning ilmiy —nazariy asosi o'rganib chiqildi, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish metodika tanlandi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyati darajasini aniqlashga yo'naltirilgan eksperimental **tadqiqot Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida o'tkazildi.** Pedagogik amaliyotda muammo holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotda 20 nafar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish o'zida mujassamlashtirgan tadqiqotni o'tkazishdan iborat bo'ldi. Bolalarning tibbiy-pedagogik hujjatlaridan eshitishi darajasiga ko'ra 1-darajali 6 nafar (30%), 2-darajali 10 nafar (50%), 3-darajali 4 nafar (20%) ekanligi aniqlandi. Eshitishini yo'qotish sababiga ko'ra tug'ma 3 ta (15%), orttirilgan 5 ta (25%), dori ta'sirida 4 ta (20%), tug'ilish davrida 3 (15%), tug'ruqdan keyingi travmalar natijasida 5 ta (25%) nuqsonlar kelib chiqqanligi aniqlandi. Eshitishini yo'qotgan vaqtiga ko'ra nutqi chiqqunga qadar 10 nafar (50%), nutqi chiqqandan keyin 7 nafar (35%), maktabgacha davr mobaynida 3 nafar (15%) ekanligi aniqlandi. Tekshiriluvchilarning barchasi TPPKdan o'tgan bo'lib, zaif eshituvchi 1-2-3 darajasiga egadirlar.

Anamnezni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar

1-jadval

Bolalar soni	Eshitish darajasi			Eshitishni yo'qotish sababi					Eshitish yo'qotgan vaqti		
	1-daraja	2-daraja	3-daraja	Tug' ma	Orttirilgan	Dori ta' sirida	Tug' rug'	Tug' ruqdan keyingi travmalar	Nutqi chiqqunga qadar	Nutqi chiqqandan keyin	Maktabgacha darvda
20	6 (30%)	10 (50%)	4 (20%)	3 (15%)	5 (25%)	4 (20%)	3 (15%)	5 (25%)	10 (50%)	7 (35%)	3 (15%)

Tarbiyalanuvchilarning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyalanish davrlari 2-4 yilni qamrab oladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida A.A Osipova, L.I.Malashinskaya metodikasidan foydalandik⁴⁴. Ta'kidlovchi eksperimentning maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyat jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida 20 nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarni bilish faoliyati darajasini aniqlashga yo'naltirilgan «Segen taxtasi» ,«Piramidani ajratish va yig'ish», «Kesma rasmlar» ,«Qatorga qo'y» , «Namunaga qarab qurish» ,«Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikalari asosida taxlil etdik. «Segen taxtasi» metodikasi eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning kattalikni farqlash darajasi, ko'rgazma-harakatli

⁴⁴ Психология глухих детей. /Под ред. Соловев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Уашковой Н.В. –М., 1999 – 67с.

tafakkurning shakllanganligini shakllanganligini ko'nikmasi tekshirildi. O'tkazish texnikasi: bolaga shakllar joylashtirilgan taxta ko'rsatildi va ko'zining oldida taxta shunday ag'darildiki, ichidagi shakllar stolning o'rtasiga tushurildi. Ko'rsatma berildi: a) so'z orqali («Qara menda har xil shaklli taxta bor, men shakllarni to'kaman, sen esa joyiga solasan») yoki b) imo-ishora orqali (eshitishi va nutqi buzilgan bolalarga). Agar bola topshiriqni tushunmasa va bajarishga kirishmasa, unda eksperiment o'tkazuvchining o'zi 1-2 shakllarini solib ko'rsatib berdi. Noo'rin harakatlarda yana yordam ko'rsatildi: «Yaxshilab qara, ushbu shaklni qaerga qo'yish kerak». Agar samara bermasa, unda bolaning diqqatini taxtadagi shakllarga va qo'lidagi shaklga qaratildi. Agar bola noo'rin harakatlarda davom etsa, unda chamalab, solib ko'rish taklif etildi. «Segen taxtasi» metodikasi metodikasida maxsus maktabgacha muassasasining 20 (100%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilardan 10(50%) nafari topshiriqni mustaqil bajardi. 5 (25%) nafar bola surdopedogog yordamida «Segen taxtasi» metodikasi topshirig'ini bajardi. 5(25%) nafar bola «Segen taxtasi» metodikasi topshirig'ini bajara olmadi. «Piramidani ajratish va yig'ish» metodikasi asosida eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning kattalikni farqlash darajasi, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini tekshirildi. O'tkazish texnikasida bolaga piramidani ajratish, so'ngra yig'ish taklif etildi. Agar bola bajarmasa uni qiziqtirish uchun piramidani katta odamning o'zi yig'ib berdi. Qiyinchilik tug'ilganda bolaning ko'zi oldida piramidani yig'ish va yoyish davomida quyidagi so'zlarni: «Avval katta xalqachani, endi sal kichikroq, yana ham kichikrog'ini va eng kichkinasini» deb o'rgatish mumkin. So'ngra bolaga xalqalarning katta-kichikligiga qarab piramidani yig'ish va ajratish taklif etildi. Piramidani yoyish va yig'ish malakasini tekshirish metodikasida maxsus maktabgacha muassasasining 20 (100%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilardan 10(50%) nafari topshiriqni mustaqil bajardi.

5(25%) nafar bola surdopedogog yordamida piramidani yoyish va yig'ish topshirig'ini bajardi. 5(25%) nafar bola piramidani yoyish va yig'ish topshirig'ini bajara olmadi.

«Kesma rasmlar» metodikasi eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning idrokining to'liqliligini rivojlanish darajasini, ko'ruv-fazoviy analiz va sintezini, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini ko'nikmasini aniqlashga yo'naltirildi. O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi kesma rasm qismlarini ko'rsatib, unda qanday predmet tasvirlanganligini aytadi, ko'rsatma berildi: a) so'z – ishorali shaklda: «rasmni to'liq qilib yig'ib ber» yoki b) imo-ishorali. Agar bola topshiriqni tushunmasa, to'liq rasm shakli ko'rsatildi va ko'rsatma takrorlanadi yoki taxlanib va yana rasm qismlari ajratildi. Agar bu yordam samarasiz bo'lsa, bolaga rasm qismlaridan to'liq rasmni yig'ish ketma-ketligi taxminiy yo'naltirish orqali o'rgatildi. Shundan so'ng bolaga ushbu rasmni yana bir bor yig'ib berish so'raladi va boshqa variant taklif etildi. «Kesma rasmlar» metodikasi metodikasida maxsus maktabgacha muassasasining 20 (100%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilardan 5 (25%) nafari topshiriqni mustaqil bajardi. 10 (50%) nafar bola surdopedagog yordamida «Kesma rasmlar» metodikasi topshirig'ini bajardi. 5 (25%) nafar bola «Kesma rasmlar» metodikasi topshirig'ini bajara olmadi. «Qatorga qo'y» metodikasi eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning kattalikni idrok etish darajasini, ko'rgazma-harakatli tafakkurning shakllanganligini ko'nikmasini aniqlashga yo'naltirildi. O'tkazish texnikasi: eksperiment o'tkazuvchi bolaning ko'zi oldida matreshkalarni ajratib, ularni bir-biriga mosi bilan qo'yib chiqdi. Keyin matreshkalarni katta-kichikligiga qarab, orasida bir xil interval saqlagan holda qo'yib chiqdi. Bundan so'ng tekshiruvchi matreshkalar qatorini ekran bilan bekitib, bolaga ko'rsatmagan holda bittasini olib qo'ydi, so'ngra ekran olinib bolaga matreshkani joyini topib qo'yish so'radi. Agar bola topshiriqni bajara olmasa, unga yordam ko'rsatildi. Avval so'z ko'rsatmasi orqali: «Yaxshilab qara, ushbu matreshka qaerda turishi kerak?» yoki imo-ishora orqali matreshkani joyini topish so'raldi. Agar bu yordam samara bermasa, unda o'rgatuvchi yordam berildi: har bir keyin turgan matreshka o'zidan oldinda turganidan kichikroq ekanligi tushuntirildi. O'rgatilgandan so'ng, bolaga matreshkaning joyini topib qo'yish topshirig'i yana 2-3 marotaba berildi. «Qatorga qo'y» metodikasi metodikasida maxsus maktabgacha muassasasining 20 (100%)


nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilardan 5(25%) nafari topshiriqni mustaqil bajardi. 10 (50%) nafar bola surdopedagog yordamida . «Qatorga qo'y» metodikasi metodikasi topshirig'ini bajardi. 5(25%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchi «Qatorga qo'y» metodikasi metodikasi topshirig'ini bajara olmadi. «Namunaga qarab qurish» metodikasi eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning shakl haqidagi tasavvurlarning, ko'ruv-fazoviy analiz va sintezning (shakllarni alohida elementlarga ajratish va ulardan bir butun shaklni sintezlash) shakllanganligini ko'nikmasini aniqlashga yo'naltirildi. Bajarish texnikasi: 3-4 yoshli bolalarga verbal (nutqiy) ko'rsatmaga tayangan holda geometrik shakllar (uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat) qurish va ularni har birini nomini aytish so'raldi. 5-6 yoshli bolalar uchun xotirasiga tayanib cho'plardan murakkabroq shakllar (uycha, bir-birini ustiga qo'yilgan romblar, narvoncha va hokazo) yasashi taklif etildi. Pedagog shirma orqasida biror shakl yasaydi va bolaga ko'rsatdi, so'ngra buzib tashladi yoki bekitib qo'ydi, bola esa xotirasi bo'yicha shaklni qurishi kerak. Qurgan shaklini so'z bilan aytib berishi zarur. Bolada qiyinchilik kuzatilsa, unga shaklni qurish yo'li yoki shaklni yana bir bor ko'rsatish orqali yordam berildi. Agar bu yordam ham samara bermasa, bolaning ko'zini oldida qurib ko'rsatiladi va boladan namunaga qarab topshiriqni bajarish so'raldi. «Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasi eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashning rivojlanish darajasini (umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyati, umumlashtiruvchi tushunchalarning shakllanganligini) tekshirishga yo'naltirildi. O'tkazish texnikasi: bolaga rasmlar to'plami berildi va taklif etildi: «Ushbu kartochkalardan bir-biriga mosini topib, stol ustiga qo'yib chiq». 10-15 kartochka qo'yib chiqilgandan so'ng so'raldi: «Nima uchun ushbu kartochkalar bu qatorda? Bular esa nimaga boshqada?» (bolaning umumlashtirish ko'nikmasi va harakatlarini so'zda ifodalay olishi aniqlandi). Yo'l qo'yilgan xatolar to'g'rilandi va kartochkalarni taxlash prinsipi tushuntirildi («idish-idishga, hayvonlar-hayvonlarga qo'y»). So'ngra bolaga topshiriqni davom ettirish taklif etildi. Agar bola topshiriqni qabul qilmasa, uni klassifikatsiyalash usuliga o'rgatildi. Boladan tekshiruvchi nima uchun ushbu kartochkalarni bu qatorga

qo'yish kerakligini, boshqalarini bu qatorga qo'yish lozimligini tushuntirildi, so'ngra o'zi mustaqil bajarishini taklif etdi. «Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasida maxsus maktabgacha muassasasining 20 (100%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilardan 2 (10%) nafari topshiriqni mustaqil bajardi. 13 (65 %) nafar bola surdopedagog yordamida . «Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasi topshirig'ini bajardi. 5 (25%) nafar eshitishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchi «Predmetlarning klassifikatsiyasi» metodikasi topshirig'ini bajara olmadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyati, predmetlarni katta-kichikligi bo'yicha taqqoslash, ko'rish idrokini rivojlanish darajasini, bolaning katta-kichiklikni amaliy chamalab olish malakasini aniqlashga yo'naltirilgan eksperimental psixologik-pedagogik tekshirish natijalari 2-jadvalda o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, eksperiment natijalaridan olingan ma'lumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim berish jarayonida bilish faoliyati juda sekin shakllanadi va bunday o'ziga xoslikni yengib o'tish uchun ham eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etadi.

**Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental
o'rganish natijalari**

2-jadval

№	Topshiriq mazmuni	O'quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi. 3 ball	Topshiriqni pedagog yordami asosida bajardi. 2- ball	Topshiriqni bajarmadi 1- ball.
1.	Segen taxtasi metodikasi	20 (100%)	10 (50%)	5 (25%)	5 (25%)
2.	Piramidani ajratish va yig'ish metodikasi	20(100%)	10 (50%)	5(25%)	5 (25%)
3.	Kesma rasmlar metodikasi	20 (100%)	5 (25%)	10 (50%)	5 (25%)
4.	Qatorga qo'y metodikasi	20 (100%)	5 (25%)	10 (50%)	5 (25%)
5.	Namunaga qarab qurish metodikasi	20 (100%)	5 (25%)	10 (50%)	5 (25%)
6.	Predmetlarning klassifikatsiyasi metodikasi	20 (100%)	2 (10%)	13 (75%)	5 (25%)



Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatni o'rganish amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotda anketa-so'rovnomaning turidan foydalandik. Biz o'z tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatida o'tkazdik. Ushbu savolnoma orqali maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatga o'rgatish maxsus maktabgacha tarbiya muasasasining imkoniyatlari qay holatda ekanligini aniqlandi. Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida 10 ta surdopedagog va tarbiyachilar savolnomaga quyidagicha javob berdilar:

1. O'qish faoliyati eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi? savoliga 8 ta surdopedagog O'qish faoliyati eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksion rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, bilish faoliyatini shakllantiradi. (diqqat, xotira, ko'ruv va fazoviy idroki, ko'rgazmali – obrazli tafakkur hamda ijodiy tasavvur) Nutq, badiiy madaniyat,

estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiy sifatlar, kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ijodiy jarayonda eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi deb javob berishdi. 2 ta surdopedagog O'qish faoliyati nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiy sifatlar, kar va zaif eshituvchi bolalarni eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi deb javob berishdi.

2. Bolalarda bilish faoliyatini shakllantirish jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? savoliga 8 ta surdopedagog bolalarda bilish faoliyatini shakllantirish jarayoniga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: bola yashayotgan sharoit, bolaning shaxsiy xususiyatlari, iste'dodi, motivatsiyasi, ta'limga qiziqishi, ish materiallari, bola bilan o'zaro munosabat jarayonida kattalarga bo'lgan ishonchi, xavfsizlik munosabatlarida ishonch tuyg'usi va boshqalar deb javob berishdi. 2 ta surdopedagog bolalarda bilish faoliyatini shakllantirishga kattalar bolalarni tushunishi ta'sir ko'rsatadi: kattalar bolalarni tushunishi esa ularni ijobiy tomonga o'zgartiradi, bolalar qiyinchilikka duch kelganlarida kattalar yordam berdilar, bolalarning qo'llab-quvvatlashga tayyor turadilar. Bilish faoliyatini shakllantirish eshitishida nuqsoni bo'lgan bola uchun korreksion rivojlanishida ahamiyati katta deb javob berishdi.

3. Bilish faoliyatini shakllantirishga qiziqishni qanday rivojlantirish mumkin? savoliga 10 ta surdopedagog bolani bilish faoliyatni shakllantirishga, mashg'ulot mavzulariga, ijodiy-o'quv masalalariga izlanishini rivojlantirish uchun zarur shart - badiiy ijod sharoitini yaratish lozim. Ta'limni faollashtiruvchi vositalar kompleksiga, ta'lim usulari metodlari va mazmuni, o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari takomillashtirish talab etiladi deb javob berishdi. Agar bunga zarur bunga imkoniyatlar yaratilagan bo'lsa, qachonki bu zarurat va imkoniyat bola tomonidan tan olinsa va ularni ehtiyoj sifatida qabul qilsa bolalarning ijodiy qobiliyati izchillik bilan shakllanadi va rivojlanadi. Bilish faoliyatini shakllntirish jarayonida bolalar ma'lum bir qiyinchiliklarni yengib o'tishlari ancha muhim, bu ularda qoniqish, o'z kuchlariga ishonch tuyg'usini keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida ijodiy qobiliyatga chaqiradi.

4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari taxlilida qaysi mezonlarga tayangan tayanish lozim? savoliga 8 ta surdopedagog Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari taxlilida quyidagi mezonlarga tayangan tayanish lozim: harakatlarning maqbulligi (topshiriqni qanday qabul qiladi); topshiriqni bajarish usullari; topshiriqni bajarayotganda o'rgatishni qabul qilishi; o'zining faoliyat natijalariga munosabati (tanqidiyligi) deb javob berishdi. Bu savolga 2 ta surdopedagog eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari taxlilida bilish faoliyati darajasiga va bolalarni shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olish kerak deb javob berishdi.

5. Bilish faoliyatini shakllantirishni qanday usullardan foydalanilasiz? savoliga 8 ta surdopedagog badiiy –pedagogik o'yinlardan foydalanilashi va tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quv o'yinlari pedagogik va badiiy –estetik aspekt bilan qo'shib olib borilishini ta'kidladi. O'yining hamma turlariga bolalarning amaliy faoliyatlari kiritiladi. O'yinli darslarning maqsadi –bolalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ularni san'atga qiziktirish, predmetga qiziqishini rivojlantirish, o'quv jarayonini yangi topshiriq shakllari bilan jonlantirishdan iboratdir. Asosiysi esa, bolaning emotsional doirasini rivojlantirish va dunyoni emotsional baholash munosabatini shakllantirish ko'zda tutadi deb javob berishdi. Mazkur savolga 2 ta surdopedagog tasviriy san'at mashg'ulotlarida klaster, Aqliy hujum kabi foydalanilashini ta'kidladi.

6. Bilish faoliyatini shakllantirishni jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanilasizmi? savoliga barcha surdopedagoglari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirishni jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanishini, ota-ona eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirishni qiziqishni rivojlantirish jarayonida asosiy o'ringa egaligini ta'kidladilar.

Surdopedagog-tarbiyachilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirishda ularning pedagogik mahorati, bilimdonligi, ilg'or pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanib ish olib borishi muhimligini aniqladik.


Shuningdek, o'qituvchilar maxsus ta'lim muassasalarida mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli bo'lsa, kelajakda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini rivojlantirish darajasi ancha ortadi degan xulosaga keldilar.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish bo'yicha maxsus maktabgacha tarbiya musasasasi surdopedagog va tarbiyachilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

3 -jadval

№	So'rovnoma savollari	To'liq javob berdi		Qisman javob berdi	
		Surdopedagoglar soni	% hisobida	Surdopedagoglar soni	% hisobida
1	O'qish faoliyati eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?	10	100%		
2	Bolalarda bilish faoliyatini shakllantirish jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?	8	80%	2	20%
3	Bilish faoliyatini shakllantirishga qiziqishni qanday	10	100%		

	rivojlantirish mumkin?				
4	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari taxlilida qaysi mezonlarga tayangan tayanish lozim?	8	80%	2	20%
5	Bilish faoliyatini shakllantirishni qanday usullardan foydalanilasiz?	8	80%	2	20%
6	Bilish faoliyatini shakllantirishni jarayonida ota- onalar yordamidan foydalanilasizmi?	10	100%		



Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasasalari amaliyotidagi ahvolini aniqlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirish amaliyotining ish tajribalarini umumlashtirish, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirishni yaxshilashga oid zarur tavsiya va takliflar berishga yordam beradi. Tasdiqlovchi eksperiment surdopedagoglar bilan suhbat, ularni kuzatish, ularning shaxsiy ishlarini o'rganish jarayoniga oid materiallarni to'plashni o'zida mujassamlashtirgan dastur–anketadan iborat bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirish amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida A.A Osipova, L.I.Malashinskaya tomonidan tuzilgan so'rovnoma asos sifatida olindi. Surdopedagog-tarbiyachilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirishda pedagogik mahorati, bilimdonligi, pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanib ish olib borishi muhimligini aniqladik. Shuningdek, surdopedagoglar maxsus ta'lim muassasalarida mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirish uchun muassasalarning moddiy-texnik bazasi yetarli bo'lsa, kelajakda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini shakllantirishni darajasi ancha ortadi degan xulosaga keldilar. Eksperiment natijalaridan olingan ma'lumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim berish jarayonida bilish faoliyatini qisaman shakllanganligi dalillandi. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish jarayonida o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etiladi .

III BOB.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish texnologiyalari

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatinishakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuni

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatinishakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuni bilish jarayonlarini – idrok, tasavvur, tafakkurining rivojlanishidan iboratgina bo'lmasdan, balki uning mazmuniga bolalarda ma'lum hajmdagi bilimlarni shakllantirish ham kiradi. Bu bilimlar bolalarga atrof hayotda moslashishga, elementar munosabatlarni va o'zaro aloqadorlikni tushunishga imkon beradi.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda atrof dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarining o'zidan o'zi, stixiyali ravishda to'planishi aqliy rivojlanishning manbai bo'la olmaydi. Shuning uchun Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatinishakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Ta'lim eshitishda nuqsoni bo'lgan bola o'zlashtirib olgan bilimlarini tizimlaydi va bolaning aqliy rivojlanishi uchun yordam beradi.Pedagog va tarbiyachilar maktabgacha tarbiya muassasasida butun hayot va faoliyat jarayonida bolalarga tevarak - atrof haqidagi bilimlarni beradilar. Bu jarayonda alohida rolni mashg'ulotlar, kuzatishlar va maxsus tashkil etilgan bolalar faoliyati o'ynaydi.Har bir mashg'ulot turi va har bir faoliyat turi bolaning aqliy rivojlanishiga o'zining alohida hissasini qo'shadi.Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlari bolalarning bilimlari tizimlashga yordam beradi va shuningdek bilish jarayoniga ijobiy ta'sir etib, ularni rivojlantiradi.Matematik tasavvurlarni rivojlantirish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar predmetlar o'rtasidagi son va sifat munosabatlarini bilib olishlari yotadi. Bunday munosabatlarni bolalar taqqoslashni, solishtirishni, (predmetlar va predmetlar guruhini) o'rganib olganlaridan so'ng tushunib olishlari mumkin.Maktabgacha yoshdagi bolaning tizimli bilimlar olishini ta'minlovchi maxsus bo'limlardan biri tevarak – atrof bilan tanishtirishdir.Tevarak – atrof bilan tanishtirish turli yo'nalishlarda olib boriladi. Bu jonsiz tabiat, jonli tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirishdir.Tevarak – atrof bilan tanishtirishda eshitishda

nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy hodisalar haqidagi tafakkurlarni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Bunda avval bolalarda o'zi haqidagi tasavvurlarini (bolalarni o'zlarini rasmdan tanishga, o'z ismini, gavda va yuz qismlarini aytishga o'rgatish) yuzaga keltiriladi. Shuningdek, bolalarda oilasi haqidagi tasavvurlarini shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalashda, bilim jarayonlarini rivojlantirishda bolalar faoliyatining barcha turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Faoliyatning barcha turlari tashkil etilganda umumiy aqliy malakalarini rejalashtirish, nazorat va o'z – o'zini nazorat qilishni shakllantirishga olib keladi. Bularsiz o'quv faoliyatining shakllanmasligi barchaga ayondir. Nutq o'stirish va atrof — olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida o'qitishning shunday usullarini qo'llash muhimki, ular borliqni yanada chuqurroq anglash va nutq hamda tafakkurning rivojlanishiga yordam bersin, Buning yordamida uchlik amalga oshiriladi — bir vaqtning o'zida nutq va tafakkurni rivojlantirish vazifalari birgina materialda hal etiladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tevarak – atrof xaqidagi tushunchalarini shakllantirish bo'yicha korreksion pedagogik ish jarayoni faqatgina mashg'ulotlar va o'yinlar doirasi bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Nutqiy malakalarni faollashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Atrof - olamdagi buyum va hodisalarga qiziqishni rivojlantirish asosida bolalarni ularni o'rab turgan defektolog, tarbiyachilar, ota ona va boshqa insonlarning ularga qaratilgan nutqini idrok etishga o'rgatish lozim. Buyumni namoyish etish va ko'zdan kechirishda muhim nutqiy vazifalardan biri nutqiy vositalarni rivojlantirish, shu qatorda yangi so'zlar bilan tanishish, ularning ma'nosini aniqlash va ularni astalik bilan bolalar nutqiy lug'atiga kiritish vazifasi hal etiladi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikdan foydalanishda kuyidagi talablarga amal qilish maqsadga muvofik: Ko'rgazma uchun tanlanayotgan rasm barcha bolalar uchun, tasvirlangan buyumlar katta hajmda va rangli bo'lishi kerak. Rangli tasvirdagi buyumlarni afzalligi shundaki, — qora tasvir bolalarga ularning rangi bilan tanishish imkonini bermaydi, bu esa nutqiy vositalarni va bilimlarni kambag'allashtiradi. Buyum bilan harakatlarni bajarishda uni namoyish etish va ko'zdan kechirishdagi kabi idrokli va

nutqiy vositalarni rivojlantirish, bola lutatini boyitish vazifalari hal etiladi. Predmet bilan harakatlarni bajarish bolalarni predmet belgilarini ifodalovchi soʻzlar bilan tanishtirish imkonini beradi.-Savol — javob usuli birinchi navbatda bolalar nutqini faollashtiradi, ogʻzaki nutqdan foydalanishga undaydi. Mazkur usulning qoʻllanilishi shuningdek, bolalarning turli grammatik shakldagi soʻzlarni, soʻz birikmalarini toʻrri qoʻllashini nazarda tutadi.Nutqiy materiallarni koʻp karra takrorlash usuli orqali defektolog tomonidan kuyidagi vazifalar hal qilinadi: bolalar tomonidan nutqni idrok etishni rivojlantirish, bolalar lugʻatini boyitish, turli grammatik shakldagi soʻz va soʻz birikmalarini tushinishni rivojlantirish.Haraktlarni sharxlash nutqni idrok etishni turli murakkablikdagi nutqiy namunalarni rivojlantirish uchun qoʻllaniladi.Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bilash ishlash jarayonida kattalar nutqini qoʻllash, koʻrgazmalilik va faoliyatga tayanish muxim. Buyumlar bilan harakatlarni bajarish faqatgina kattalar tomonidan emas, bolalarni oʻzlari tomonidan bajarilishi ayniqsa muhim. Maxsus tashkillashtirilgan oʻquv vaziyatlari sharoitida nutq harakatli, amaliy xarakterga ega boʻladi. Atrof — olam bilan tanishtirish va nutq oʻstirish mashgʻulotlarida bolalar nutq yordamida shakllanuvchi va nutq yordamida ifodalanuvchi atrofdagi predmet va xodisalar haqida maʼlum bilimlarni egallaydilar. Bilish jarayonlari va nutqning uzviy bogʻliqligi bir vaqtning oʻzida bolalar nutqini oʻstirish va tasavvurlarini rivojlantirish, korreksiyalash, ularni atrof — olam bilan tanishtirish masalalarini hal etish imkonini beradi. Olamni idrok etish davomida kattalar bola diqqatini atrof — olamdagi hodisalarga qaratishlari, ular haqida soʻzlab berishlari lozim. Shu bilan birga kattalarning tushuntirishlari yordamida bola oʻz taasurotlari orasidan kattalar koʻrsatayotganlarini ajratishni oʻrganadi, shu tarzda bolada bilish qobiliyati rivojlanadi. Bola tevarak- atrof va borliqdagi predmet va hodisalar bilan qanchalik yaqindan tanishsa, undagi qiziquvchanlik qanchalik chuqur boʻlsa, predmet va ularning belgilari bilan soʻzlar bogʻlashuvi shunchalik tez oʻrnatiladi. Qiziqish yangi bilimlarni oʻzlashtirish va shu bilimlarni soʻzlar yordamida mustahkamlash imkonini beradi. Shuning uchun defektolog va tarbiyachi tevarak-atrof bilan tanishtirish asosida tasavvurlarini rivojlantirish, har bir mashgʻulotlarining

mazmuniga bolalar qiziqishlarini orttirishlari va o'rganilayotgan ob'ektlar haqidagi bilimlarning kengayish darajasiga ko'ra bolalar nutqini o'stirishlari, ya'ni korreksion pedagogik ishlarni umumrivojlantiruvchi vazifalar bilan birgalikda hal etishlari lozim. Maxsus ta'lim rejali va tizimli amalga oshirilgandagina samarali bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarni tevarak - atrof bilan tanishtirish jarayonida nutqni o'stirish ishlarini kommunikativ malakalarning rivojlanish dinamikasiga mos keluvchi ma'lum ketma - ketlikda, ya'ni nutqiy muloqat malakalariga mos ravishda amalga oshirish lozim. Yangi pedagogik texnologiya asosida mashg'ulotlarni olib borish va shu asnoda maktabgacha ta'lim yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini rivojlantirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish asosida tasavvurlarini korreksion pedagogik ishi asosida rivojlantirish oliy maqsadi asta - sekinlik bilan murakkablashtirib borish kerak. Nutq o'stirish mashg'ulotlarining kelgusi mazmuni bolaning tevarak-atrof olamdagi predmetlar bilan tanishish mashg'ulotlarida ilk bor tanishayotgan materialini qaytaradi, chuqurlashtiradi va to'ldiradi. Nutqni atrofdegilar bilan muloqot etishning asosiy vositasi sifatida rivojlantirish uchun nutqni tushunishni tizimli rivojlantirish va bolalarning shaxsiy nutqiy faolligini stimullashtirish lozim. Nutq o'stirish va atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida o'qitishning shunday usullarini qo'llash muhimki, ular borliqni yanada chuqurroq anglash va nutq xamda tafakkurning rivojlanishiga yordam bersin. Buning yordamida uchlik amalga oshiriladi — bir vaqtning o'zida nutq va tafakkurni rivojlantirish vazifalari birgina materialda hal etiladi. Bolalar so'z boyligini boyitish bolalarning tevarak- atrofdegilar narsa va xodisalar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, so'z boyligini orttirish (buyumlarning sifati va xususiyatlarini, rangi, katta - kichikligi). Predmetlar bilan kattalar singari, bolalarning ham harakat qilishlari katta ahamiyatga ega. Harakatlarni egallash mazkur harakatlarni anglatuvchi so'zlarning xosil bo'lishiga zamin bo'lib, so'zlarni yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi. Predmetlar bilan o'yinli xarakatlarga o'rganish bola nutqini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. O'yinga o'rganish davomida bolalar harakat usullari va kattalarning predmetlarni, harakatni, aloqa — munosabatni ko'rsatish davomida qo'llayotgan so'zlarni egallaydilar.

Shunday qilib, gap va xikoyalarni tuzish uchun lozim bo'lgan fe'ldan iborat lug'at to'planadi. Harakatlarni o'zlashtirgan sari bolaning nutqiy faolligi oshadi, kattalar nutqiga taqlid etish qobiliyati rivojlanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmunida quyidagi talablarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishni tarbiya dasturining tarkibiy qismiga aylantirish;

2) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish ;

3) Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tevarak – atrof xaqidagi tushunchalarini shakllantirishni ekologik ta'lim va tarbiyani bola yashayotgan makon (uyi, hovlisi, ko'cha, bolalar bog'chasi, o'yin maydoni, atrofdagi tabiat va boshqalar) asosida amalga oshirish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ishga doir psixologik-pedagogik asoslar kuyidagi umumiy mazmunni o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida boshlangich ta'lim va tarbiya maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini aniqlash va ularning birligini ta'minlash.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning ilmiy-metodik asoslangan didaktik tamoyillarini ishlab chiqish va ularga tayanish

3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali metodlari va vositalarini aniqlash va tavsiya qilish.

3.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali usullari

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish faqatgina mashg'ulotlarda emas, balki o'yinlar, ekskursiya, bog'cha atrofida, dukonda, bogcha oshxonasida, omborxonasi.... bo'ylab sayrlar uyushtirib, sayr davomida bolalar bilan suxbatlashib ushbu suxbat orkali bolalarning lug'at boyliklarini ortirib, savol-javob orqali rivojlantirib borish, nutqiy malakalarni faollashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish lozim. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish asosida bolalarni defektolog, tarbiyachilar va ularni o'rab turgan boshqa insonlarning qaratilgan nutqini idrok etishga o'rgatish lozim. Maktabgacha yoshdagi tarbiya uslubiyatchilarida shunday ibora mavjud: «Bolalar tinglaydilar, ammo eshitmaydilar, qaraydilar, ammo ko'rmaydilar». Shuning uchun nafaqat kuzatishni, balki ko'rishni, nafaqat tinglashni balki eshitishni o'rgatish, ya'ni ta'limning asosi bo'lgan idrok etishni rivojlantirish — nutqni tinglash, uning mazmunini tushunish, shuningdek diqqatni jamlash, nutqni idrok etish istagini paydo qilish hisoblanadi. Defektolog: «Bo'shliqqa gapirish mumkin emas» degan qoidaga amal qilishi lozim. Bolalarda nutqni idrok etishga «istak tug'ilmasdan» gapirish befoyda. Agarda bolalar toliqib qolsalar, ularni faoliyatning boshqa turlariga jalb etish yoki ular diqqatini nutqqa o'ziga xos usullar bilan qaratish kerak. Nutqni idrok etishni rivojlantirish bolalarning o'yin va amaliy faoliyatlari jarayonida amalga oshiriladi: tarbiyachi va defektolog tomonidan barcha rejim momentlari, o'yinlar, mashg'ulotlar, kuzatuvlar, ekskursiya sayrlar qo'llaniladi. Nutqni idrok etishni rivojlantirish maqsadida kattalar nutqini bolalar faoliyatini regulyatsiya etish vositasi sifatida qo'llash mumkin. Kattalar nutqi o'z shakli va vazifasiga ko'ra bolalar harakatini chegaralagani kabi («mumkin emas!») ularni harakat etishga, harakatlar bilan moslashishi va ularni yakunlashga undashi mumkin («Qo'llarimizni yuvamiz», «Qo'llarimizni yuvayapmiz», — «Qo'llarimizni yuvib bo'ldik»). Asta — sekinlik bilan so'z birikmalari murakkablashadi. Bolalar tomonidan harakatlarning adekvat bajarilishiga qaratilgan nutqni to'g'ri idrok etish va tushunishdan dalolat beradi. Shunday qilib, kattalar nutqini idrok etish bolalarni nutqini yanada murakkab — boshqaruvchi va

rejalashtiruvchi funksiyalarini egallashga tayyorlaydi. Keyinchalik bolalarda atrofdagi hodisalarga, predmetlarga, o'yinchoqlarga, rasmlarga, kattalarga nisbatan ortib borayotgan qiziqishlarini saqlab turmoq va mazkur qiziqish asosida nutqning nisbatan murakkab namunalarini, shu qatorda, gaplarning turli variantlarini idrok etishni takomillashtirish kerak. Kattalar nutqini idrok etishni rivojlantirish bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim olishlarining barcha muddati davomida amalga oshiriladi. Tevarak -atrofdagi predmetlar va hodisalar bilan tanishtirish asosida lug'atni boyitish, so'zlarning leksik va grammatik ma'nosini aniqlash yo'li bilan nutqiy vositalarni rivojlantirish amalga oshiriladi. Kuzatilayotgan predmet va uni anglatuvchi so'z bolaning ko'z o'ngida bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi va bir butunlik sifatida idrok etiladi. So'zning leksik ma'nosi predmet haqidagi tushunchada mustahkamlanadi. Nutqiy vositalarning yetarlicha emasligi uzoq vaqt davomida bolaga nutqiy muloqotga faol qo'shilish imkonini bermaydi. Mavjud nutqiy vositalar asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish amalga oshiriladi. Nutqning kommunikativ funksiyasini rivojlantirishni nutqning vaziyatli shaklidan kontekstli shakliga astalik bilan o'tish yo'li bilan amalga oshirish, ya'ni muloqatni rivojlantirishni me'yorda rivojlanayotgan bolalar nutqining umumpsixologik rivojlanish qonuniyatlari asosida ko'rish lozim. Bolalar nutqi exolaliya-aks etgan bo'lishi mumkin. Nutqning mazkur shakli kattalar buyumni (belgi yoki harakatni) nomlab, o'sha onda uning nomlanishi xaqida savol bergan vaziyatda paydo bo'ladi. Bola qulay nutqiy vaziyatda bo'ladi: predmet ko'z o'ngida, javob uchun so'zni yodga tushurish kerak emas, u hozirgina defektolog nutqida jarangladi. Mustaqil nutq bolalar muloqatida ixtiyorsiz paydo bo'lishi mumkin. Bajargan tadqiqot ishlarimizni xulosalab, barcha usullarni adabiyotlarda va amaliyotchilar tajribasida o'rganib, maktabgacha ta'lim muassasalari va maxsus guruxlari sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ishida qo'llanilishi mumkin bo'lgan nisbatan xarakterli quyidagi usullarni ajratib olish imkoniyatiga ega bo'ldik:

- predmetni namoyish etish va ko'zdan kechirish;

- predmet bilan harakatlarni bajarish;
- ko'g'irchoq, o'yinchoq orqali muloqat;
- nutqiy materialni ko'p karra takrorlash;
- harakatlarni shahlash.

Predmetni namoyish etish va ko'zdan kechirish usuli Predmetni namoyish etish va ko'zdan kechirishda muxim nutqiy vazifalardan biri nutqiy vositalarni rivojlantirish, shu qatorda yangi so'zlar bilan tanishish, ularning ma'nosini aniqlash va ularni astalik bilan bolalar orasi lug'atiga kiritish vazifasi hal etiladi. Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda namoyish va ko'zdan kechirish uchun gurux xonasida mavjud bo'lmagan yangi predmetni tanlash kerak. Agarda bolalar ushbu predmetni avval ko'rganliklari taxmin etilsa, u xolda bolalar avval ko'rishlari mumkin bo'lmagan ko'rgazmali tayanch tanlanadi. Bu yerda ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikdan foydalanishda to'xtatilish maqsadga muvofiq. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni ularni o'rab turgan voqea — xodisalar va predmetlar bilan tanishishda ko'rgazmali vosita sifatida turli xil ko'rgazmali materiallar: real predmetlar, o'yinchoqlar, rasmlar bo'lishi mumkin. Bolalar ta'limi uchun ko'rgazmali materialni tanlashga ma'lum talablar qo'yiladi: tabiiy predmetlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Agarda tabiiy tayanch ko'rsatish imkoni bo'lmasa u holda ularni predmetning xarakterli tashqi belgilarini ifoda etuvchi o'yinchoqlar, mulatlar bilan almashtirish tavsiya etiladi (masalan, quyonga o'yinchog'ining rangi oq; yoki jigar rang, yumshoq momiq materialdan, uzun quloqli va kalta dumli bo'lishi kerak). Bu bolada nafaqat predmet haqidagi real tasavvurlarning shakllanishiga balki nutqiy vositalarning maksimal rivojlanish imkonini beradi. O'yinchoq qanchalik real ko'rinishda bo'lsa, u shunchalik bola nutqi va bilimlarining boyishiga katta imkon beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy ko'rgazmali tayanch sifatida turli fasllar uchun mo'ljallangan bolalar kiyimlari va oyoq kiyimlari, uy — jixozlari, idish — tovok, predmetlari, o'simliklar, (er maydonchasidagi daraxtlar va butalar hamda gurux xonasidagi gulli

o'simliklar) uy hayvonlaridan mushuk yoki kuchukni, shuningdek qafasdagi qushlar, akvariumdagi baliqlardan foydalanish mumkin. Rasmi material bolalar o'yinchoq bilan tanishgandan so'ng qo'llaniladi. Guruxli mashg'ulotda ko'rgazma uchun tanlanayotgan rasm barcha bolalar unda tasvirlangan predmetlarni yaxshi ko'ra olishlari uchun katta xamda rangli bo'lishi kerak (Masalan, «uy xayvonlari», yovvoyi hayvonlar va b.). Rangli tasvirdagi predmetlar afzal, chunki oq — qora tasvir bolalarga ularning rangi bilan tanishish imkonini bermaydi, bu esa nutqiy vositalarni va bilimlarni kambagallashtiradi. Bir vaqtning o'zida namoyish uchun predmetli rasmlarni tanlashda ularning hajm jixatidan mos kelishiga e'tibor berish kerak. Masalan, ot va sigirning kichik xajmdagi rasmi bilan o'rdak, xo'rozning katta xajmdagi rasmini bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Bolalar predmetlarni ularni boshqa predmet bilan turli belgilarga ko'ra, shu qatorda xajm jixatidan solishtirgan xolda idrok etadilar. Rasmlarni noto'g'ri tanlash natijasida bolalarda predmetlarning hajmi xususida noto'g'ri tasavvur shakllanadi, bu esa albatga tushuncha va nutqiy vositalarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Ta'limning mazkur usulini ta'riflashda davom etamiz. Kattalar tomonidan namoyish etilgan va nomlanganlarning barchasi bola uchun alohida qiziqish uyg'onib, u sinchiklab qaraydi, diqqat bilan eshitadi. Kattalarning o'zi xam bola uchun doimiy ravishda biron —bir yangilik, qiziqish manbai bo'ladilar. Albatta bolalar tanishadigan barcha predmetlar yorqin rangda bo'lishi kerak. Yangi predmetlar bolalar e'tiborini ham ta'm («ko'rganlarimizning barchasini ta'tib ko'ramiz»), ham hid («Hidlab ko'rchi, olmaning hidi qanday?»), ham hajm jihatidan farq etishi bilan (engil—og'ir), ham haroratiga (iliq —sovuq) va boshqa sifatlarga ko'ra jalb etishi mumkin. Shu bilan birga bolalar predmetni ko'rishlariga qadar diqqat va e'tiborlarini kattalarning og'zaki ko'rsatmasiga tayangan holda: «Ko'raylikchi bizning qutida nima bor?», «Bugun men sizlarga bir narsa olib keldim», «Eshitaylikchi bizning oldimizga kim keldi?» namoyon etishlariga erishish lozim. Namoyish etish va ko'zdan kechirish davomida surdopedogog nafaqat predmetlarni nomlashi, balki ularning tashqi belgilari, ularning vazifasini aytishi lozim. So'ng esa bolalar diqqatini predmetning u yoki bu qismini (uning detallarini) namoyish etishga qaratish kerak. Namoyish etish

davomida bolalar ba'zan predmetni ifodalovchi so'zga, ba'zan belgini ifodalovchi so'zga tayanadilar. Nutqiy vositalarni rivojlantirishdan tashqari, mashg'ulotlarda mazkur usulning qo'llanilishi yana bir vazifaning hal etilishiga — nutqni idrok etishni rivojlantirishga imkon beradi, agarda mazkur usul ta'limning boshida qo'llanilsa, u xolda defektolog asosan o'zi ham predmetni nomlaydi, ham uning tashqi ko'rinishi, vazifasi haqida so'zlab beradi. U bolalarga tushunishlari mumkin bo'lgan va keyinchalik uni o'zlashtirib, mazkur bilimlarni faol nutqda ifodalay olish imkonini beradigan materialni beradi. Bolalardan hali faol nutq talab etilmaydi, biroq ular logoped tomonidan taklif etilgan barcha namoyishlarda ishtirok etadilar. Nutq bolaning tashabbusi asosida ham paydo bo'lishi mumkin. Bu holatda bunday nutq ta'qiqlanmaydi, aksincha rag'batlantiriladi. Bu esa boshqa bolalarda ham tashabbusning namoyon bo'lishiga stimul hisoblanadi. Bolalarning tashabbusli nutqi xech kanday sharoitda, hattoki tarbiyaning zarariga bo'lsa ham chegaralanmaydi. Keyinchalik predmetni namoyish etish va uni ko'zdan kechirish bolalar nutqining faollashuvi uchun ham foydalaniladi. Dastlab bolalar faqatgina predmetni, uning belgilari, qismlari (detallarni) nomlaydilar, so'ng mazkur so'zlar gaplarda ham qo'llaniladi. Mazkur usulni qo'llashda surdopedagog nutqi muxim o'rin egallaydi. Bolalar uchun namuna sifatida xizmat qiluvchi nutqiy vositani to'g'ri tanlash uchun, bolalar predmetni ilk bor ko'rayottanlarini tasavvur qilish mumkin. Bu kattalarga barcha lozim bo'lgan lug'atni belgilab olish, so'z shakllari va ularni birlashish usullarini tanlab olishga yordam beradi. Predmet bilan tanishtirishni u haqida hikoya qilib berishdan boshlash kerak. Hikoyani nutqiy namuna sifatida nisbatan aniq so'zlarni sinchkovlik bilan tanlab va ularni qisqa gaplarga birlashtirgan holda avvaldan o'ylab topish kerak. Hikoyada so'zlarning ko'p karra takrorlanishini ham ko'zda tutish kerak. Turli predmetlarni ko'zdan kechirishdagi nutqiy harakatlarni bir turdagi ketma — ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq; masalan. Dastlab predmetni, so'ng — uning shakli, rangi, hajmi, ta'mi va belgilarini nomlash. Barcha predmetlarning namoyishi ham shu ketma — ketlikda ko'riladi, Bunday ketma — ketliklik maqsadga muvofiq. Chunki oxir — oqibat u tasvirlovchi hikoya tuzishga tayyorlash uchun namuna sifatida xizmat

qiladi.

Predmet bilan harakatlarni bajarish usuli

Predmet bilan harakatlarni bajarishda predmetni namoyish etish va koʻzdan kechirishdagi kabi — idrokli va nutqiy vositalarni rivojlantirish, bola lugʻatini boyitish vazifalari hal etiladi. Birinchi holatda bola avvalo predmet va ularning belgilarini ifodalovchi soʻzlarni egallaydi, harakatlarni bajarishda esa — harakatlarni, predmet holatini, harakat bosimlarini ifodalovchi soʻzlarni egallaydilar. Agarda bola predmet bilan tanishishda turli analizatorlarga tayansa, u yangi soʻzni predmet, harakat yoki belgi bilan nisbatan tezroq bogʻlaydi. Bolaning nafaqat koʻrishi yoki eshitishi, balki predmet bilan harakat etishi; uni ushlashi, paypaslab koʻrishi, silashi, harakatlantirish ham ayniqsa muxim. Bunda lutat harakatlarning nomlari bilan boyidi, bu esa bolalar faol nutqida gaplarning paydo boʻlishiga imkon beradi. Bola tomonidan nutqni idrok etishni, harakatlarni ifodalovchi yangi soʻzlarni oʻzlashtirishishi va faollashuvini rivojlantirish uchun qarama — qarshi maʼnodagi juft soʻzlarni qoʻllash lozim. Masalan, lozim boʻlgan koʻrgazmali tayanch qushchani tanlab, qushga dumini qanday tushurib — koʻtarayotganini, koʻrsatish mumkin. Logoped buni bolalarning har biriga qushcha bilan oʻynashga ruxsat bergan holda bajarib koʻrish imkonini beradi.

Shuni taʼkidlash lozimki, mashgʻulot davomida qator harakatlarni bajarib, bolalar egallangan malakalarni mustaqil oʻyinlariga koʻchiradilar. Shunday qilib, harakatlarni namoyish etish va bolalar tomonidan harakatlarning bajarilishi nafaqat nutqiy vositalar rivojlanishiga, balki bolalar oʻyinlarining rivojlanishiga ham imkon beradi. Oʻyinlarni kuzatish shuni koʻrsatadiki, bolalar oʻyinchoq bilan harakatlarni bajarar ekanlar, u bilan «soʻzlashadilar», shu orqali nutqiy faollikni namoyon etadilar, jonsiz predmetlar bilan nutqiy muloqotda «oʻz kuchlarini sinaydilar».Predmet bilan harakatlarni bajarish bolalarni predmet belgilarini ifodalovchi soʻzlar bilan tanishtirish imkonini beradi.

Qoʻgʻirchoq, oʻyinchoq orqali muloqat usuli

Qo'g'irchoq orqali muloqot (o'yinchoq) mazkur usulning qo'llanilishi idrokli rivojlanishiga va bolalar nutqining faollashuviga misol beradi. O'yinchoq orqali muloqot nutqiy kommunikatsiyaning rivojlanishi uchun muxim bo'lgan tinch vaziyatni yaratadi, shuningdek ... predmet bilan tanishishga katta qiziqishni uyg'otadi, nutqiy vositalarni boyitadi, bolalarda mutaql tashabbusli nutqning xosil bo'lishini tezlashtiradi. Mazkur usulning qo'llanilishi quyidagilardan iborat. Yuqorida ta'riflangan usullardan farqli ravishda o'yinchoq surdopedog tomonidan bolalarni u bilan tanishtirish uchun emas, balki uning yordamida bolalar bilan muloqatni tashkil etish uchun qo'llaniladi. O'yinchoq orqali sanab o'tilgan usullarning barchasi qo'llanilishi mumkin: logoped qo'g'irchoq nomidan savol bilan murojaat etadi, predmetni ko'zdan kechiradi yoki xarakatni bajaradi va bolalar surdopedogoga emas, o'yinchoqlarga javob beradilar. Defektolog ba'zi harakatlarni ko'rsatib bera olishga o'rganish uchun o'yinchoq bilan mashq qilishi kerak, agarda qo'g'irchok, teatri personaji kabi yasalgan bo'lsa bu ish nisbatan muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Vositali muloqatning mazmuni bolalar bilan tanishuv bo'lishi mumkin. Vositali suhbatning mazmuni mashg'ulotlarda xulq — atvor qoidolari bilan tanishish bo'lishi mumkin. Vositali muloqat davomida bolalar olmagan hali o'yinchoqqa, hali logopedga qaraydilar, biroq kommunikativ usulni o'yinchoq bilan muloqat sifatida idrok etadilar. Vositali muloqatni o'yinchoq — personajini tasviriy faoliyatda lozim bo'lgan materiallar bilan tanishtirish uchun: u yoki bu predmetning qanday nomlanishi, u nima uchun kerakligi, shuningdek, o'z—o'ziga xizmat ko'rsatishda lozim bo'lgan qoidalarini o'zlashtirish uchun qo'llash mumkin. Biron — bir qoidalar bilan o'yinchoqni tanishtirar yoki o'rgatar ekan bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida egallagan ko'nikmalarini namoyish etadilar va eng muhimi bir vaqtning o'zida ularni so'zda ; mustahkamlaydilar. Mazkur usulni qo'llash davomida bolalar nutqni idrok etishni o'rganadilar, so'ng savollarga birgina so'z, so'z birikmasi va nihoyat gap bilan javob beradilar. Boshqa usullar singari, o'yinchoq orqali bolalar bilan muloqat etish usulini turli — tuman mashg'ulotlarda va ulardan tashqarida ham qo'llash mumkin.

Nutqiy materialni ko‘p karra takrorlash.

Mazkur usul bolalar birgina so‘zlarning turli so‘z birikmalarida va turli shakllarda qo‘llanilganda o‘zgarishiga diqqat bilan quloq solishlari uchun qo‘llaniladi. Nutqli materialni ko‘p karra takrorlashda logoped tomonidan quyidagi vazifalar xal etiladi: bolalar tomonidan nutqni idrok etishni rivojlantirish, bolalar lug‘atini boyitish, turli grammatik shaklda so‘z va so‘z birikmalarini tushunishni rivojlantirish, shuningdek proladavtik vazifalar xal etiladi. Mashg‘ulot uchun nutqning namunasini avvaldan tayyorlash kerak. Uni so‘z birikmasi va qancha birgina so‘zlarni qo‘shgan xolda maqsadga muvofiq qurish kerak. Mazkur usul logopedning bayonlarini yoki xech bo‘lmaganda aloxida so‘z birikmalarini, gaplarni ixtiyoriy yodda saqlab qolishga imkon beradi. Aloxiida so‘zlarni ko‘p karra takrorlash maqsadida surdopedogog nutqini mazmuniga qaytarilishllr xos bo‘lgan ertak shaklida tasavvur etish mumkin. Bola keyinchalik harakat etadigan xar bir predmet haqida hikoya qilinadi: ular o‘ynaydilar, ular haqida ertak aytadilar, ular mazkur nutqni kuzatadilar, aynan ular haqida xikoya etilayotganligini eshitish ular uchun yoqimli. Hikoya shuningdek xar bir bolaning harakatini boshqaradi. Bolalarning so‘zlarni ko‘p karra idrok etishlarini ta‘minlovchi usullardan biri, biron —bir faoliyat davomida kattalar nutqi bo‘lishi mumkin. Biz bunday nutqni shartli ravishda sharxlovchi nutq deb ataymiz.

Harakatlarni sharhlash

Bolalar harakatlarini sharhlash nutqni idrok etishni turli murakkablikdagi nutqiy namunalarni rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Mazkur usul propedevtik vazifalarni hal etish uchun javob beradi. Undan sistemali ravishda mashg‘ulotlarda foydalanilib bolaning har qanday keyingi nutqiy rivojlanish darajasini tayyorlash mumkin. Masalan, bola faol nutqida zarur so‘zlarni qo‘llashni oldinlamoq, har qanday konstruksiyadagi gaplarni qurish, hikoya tuzish. Mazkur usulni qo‘llash bolalar nutqida agrammatizmning paydo bo‘lishini, nutq rivojlanishining ma‘lum bosqichida esa duduqlanishni oldini olish imkonini beradi. Harakatlarni sharhlash nafaqat nutqiy materialni ko‘p karra takrorlanishini, balki so‘zning uni anglavtuvchi real predmet, belgi, harakat bilan uzviy harakat bog‘liqligini

ta'minlaydi. Sharhlovchi nutq o'z strukturasi va hissiy bo'yog'iga ko'ra bir xil emas. U faktni tasdiqlashni ifodalashi, harakatta undashi, shuningdek bola faoliyatini oldindan payqash boshqarish va baholash funksiyasini bajarishi mumkin. U bola tomonidan mustaqil, kattalar bilan birgalikda bajarilayotgan har qanday faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Predmetlar bilan harakatlarni sharhlash nutqni tushunishni takomillashtirishga imkon beradi. Bolalar nutqiy vositalar yordamida ifodalanuvchi nisbatan nozik ma'nolarga tayanishga o'rganadilar: «Sardor stul oldida turibdi (stulga)»; «Tez bortoqda (sekin)»; «Sardor ayiqchani stolning ostiga qo'y (stol oldiga, stolga)». Bolalarning kaggalar sharhlovchi nutqini tushunishlaridagi qiyinchilik juda kam holatlarda uchraydi. Chunki uning mazmuni aniq ko'rgazmali materialga tayanishgan, vaziyat bilan bog'langan, bajarishgan faoliyat bilan asoslangan. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda kattalar nutqini qo'llash ko'rgazmalilik va faoliyatga tayanishni talab etadi. Predmetlar bilan harakatlarni bajarish faqatgina kattalar tomonidan emas, bolalarni o'zlari tomonidan bajarilishi ayniqsa muhim. Maxsus tashkillashtirishgan o'quv vaziyatlari sharoitida bu nutqga harakatli, amaliy harakatlarni beradi. Maktabgacha ta'lim yoshida o'yin bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga ham xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi hayotida muhim o'rin tutadi. O'yin jarayonida bolalar yangi bilim, malakalarni egallaydilar, qobiliyatlarini o'stiradilar. **Idrokni o'stirishga qaratilgan o'yinlar** bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko'ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Maktabgacha yosh oxiriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bimalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, oval, to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak)ni bilishlari lozim. Namunaga ko'ra yoki nomi aytilgan ma'lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Bolalar narsalarning kattaligini farqlashda ularning o'lchami bo'yicha terib chiqishni biladilar, 8 — 10 ta tayoqcha, doiracha yoki boshqa bir xil turdagi kattaligi har xil predmetlarni kattalashib va kichiklashib boruvchi tartibda qo'yib chiqadilar. Narsalar kattaligini 3 xil o'lchamda nomini ayta oladilar (uzunlik, kenglik, balandlik). Navbatdagi o'yinlar guruhi **diqqatni rivojlantirishga qaratilgan** bo'lib, ular voqelikning

ma'lum jihatlariga qarata diqqatni to'plashga o'rgatadi. (Diqqatni to'plamasdan hech bir ishni bajarish mumkin emas). Bu o'yinlar turkumi orqali maktabgacha yoshda bola diqqatining turg'unligi, ko'chuvchanligi, bo'linuvchanligi kabi xususiyatlari shakllantiriladi. Diqqatning turg'unligi biror narsa ustida uzoq vaqt diqqatni to'plab tura olish, demakdir. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolalar 1 — 1,5 soatgacha uzluksiz shug'ullana oladilar. Diqqatni ko'chirish — uni bir faoliyatdan ikkinchisiga o'tkaza olishdir. Diqqatning bo'linuvchanligi bir vaqtning o'zida kishining ikki yoki undan ko'proq narsa bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar 6 —7 ta narsa o'rtasida diqqatni taqsimlay oladilar.

Maktabgacha yoshda ixtiyorsiz diqqatdan asta — sekin ixtiyoriy diqqatga o'tiladi. Ixtiyorsiz diqqat jarayoni ayni paytda bola uchun qiziqarli narsaga diqqatni qaratishda yuzaga keladi. Ixtiyoriy diqqat bolaning o'zi uchun qiziq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullana olishini nazarda tutadi. O'yinlarning yana bir turi **xotirani o'stirishga qaratilgan** o'yinlardir. Katta maktabgacha yoshdagi bolao'zoldiga maqsad qo'ya oladi— biror narsani eslab qolish, ana shu maqsadni amalga oshirish vositalarini izlab topish shular jumlasidandir. **Tafakkurni o'stirish** — obrazli— harakatli, ko'rgazmali —obrazli, mantiqiy tafakkur turlarini egallashdan iborat..Va nihoyat, bolalarni **maktabga tayyorlashga yordam beradigan o'yinlar** orqali kichkintoylarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish, nutqning tahlili bilan tanishtirish, bola qo'lini yozuvmalakasini egallashga tayyorlash ishlari olib boriladi.

Naqsh yasa

Bu o'yinda bola bir xil rangdagi geometrik shakllardan naqsh yasashi lozim. Bu o'yin bolalarga shaklni idrok etishga, narsalarning fazoda joylashuvini tahlil etishga yordam beradi. Bolaga ko'rsatish uchun namuna sifatida applikatsiya tayyorlang. Uni bolaga sovg'a qiling Xuddi shunday sovg'ani bolaning sevimli o'yinchog'iga ham tayyorlash mumkinligini ayting. Bolagauni mustaqil tayyorlashni taklif etib, buning uchun qog'oz, namunadagiga o'xshash shakllar

bering. Shakllar oddiy bo'lgani yaxshi. Doira, to'rtburchak, uchburchak, oval, to'g'ri to'rtburchaklar bir xil o'lchamda bo'lishi kerak. Naqshda shakllar ko'p bo'lmashligi muhim. Masalan, varaq o'rtasida — doira, burchaklarida uchburchaklar joylashtirilishi mumkin. Topshiriqni bajarishda qiynalmasligi uchun qog'oz varag'ining tegishli joylariga bola yopishtirishi lozim

. Hosil yig'imi

Olma mevalarini (o'rmini turli o'lchamdagi tugmachalar ham bosishi mumkin) turli kattalikdagi savatchalarga solish lozim. Maydaroq mevalarni kichikroq savatchaga, yirik mevalarni katta savatga solishni taklif qiling, keyin ularni sanash mumkin.

Havoli pufaklar

Bolalar narsalarning rangiga e'tibor qilishni o'rganishlari uchun bir xil rangli narsalarni ajratishga o'rgatish maqsadida shu o'yinni taklif etish foydalidir. Buning uchun qalin qog'ozga 6 — 7 rangli tasmalarni yopishtirib qo'yish va rangli qog'ozdan doirachalar qirqib tayyorlash lozim. Tasmalar — ip, doirachalar — pufak bo'ladi. Bolaga pufaklarni ipga bog'lashni taklif eting, buni qanday qilish lozimligini ko'rsatib bering. Shundan so'ng, mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish mumkin, faqat xatoga yo'l qo'ygan hollardagina yordamlashib turasiz.

. Rangli maydonlar

Bu o'yinda bola turli rangdagi o'yinchoq siluetlarni katta rangli qog'ozlarga joylashtiradi. Qog'oz betiga faqat shu rangdagi narsalarni qo'yish mumkin. Bolaning e'tiborini turli xil narsalarning ham rangi bir xil bo'lishi mumkinligiga qaratish muhim. Shu o'rinda bir turdagi narsalarning rangi turlicha bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlash lozim. Siz bolaga topshiriqni bajarishning turli usullarini ko'rsatib berishingiz kerak. Har bir o'yinchoq va rangli qog'ozlarning rangini birma — bir taqqoslash, avval bir xil rangdagi narsalarni ajratib olish, tegishli rangdagi qog'oz betiga qo'yish shu jumladandir. Bola xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligiga tayyor turing. Agar u turli rangdagi bir xil predmetlarni qog'oz varag'iga yig'a boshlasa, bu holda o'yinchoqlar ko'rinmay qolishini ko'rsating.

Qiyalikdagi sharcha

Bu o'yin bolalar tafakkurini o'stirishda qo'llaniladi. Uncha katta bo'lmagan qiyalik tayyorlang, buning uchun stol tekisligiga burchak ostida qo'yilgan har qanday taxtacha bo'lishi mumkin. Qiyalikdan sal narida chiziq tortiladi. Bolaga uncha katta bo'lmagan sharcha berib, uni boyagi chiziq oldiga kelganda to'xtaydigan qilib qiyadan g'ildiratishni taklif qiling. Tabiiyki, bola boshida buning

uddasidan chiqa olmaydi, lekin chiziqqacha masofani ko'z bilan chamalab, sharchani iloji boricha to'g'ri tushirishga harakat qiladi. O'yinni musobaqa tarzida ham uyushtirish mumkin.

Aynan shu topshiriqni bir muncha kattaroq yoshdagi bolalarga berish uchun uni bir oz murakkablashtirish lozshm. Shar yo'liga tayoqcha qo'yish, darvoza o'rnatish mumkin. Bola sharni darvozaga kiritishi lozim.

O'yinchoqni tuzat

Bu o'yinni o'tkazish uchun bolaga biror o'yinchoq berib, uni ma'lum muddat (bir necha kun) o'ynab turishiga sharoit yarating. O'yin jarayonida bola o'yinchoqning tuzilishi bilan tanishadi. (Masalan — mashina). So'ng, bolaga sezdirmay, mashina g'ildiragiga rezina qoplab qo'ying, shunda mashina yurmay qoladi. Bola bu kamchilikni bartaraf etish uchun ko'p vaqt sarflaydi, harakat qiladi. Kamchiliklar sonini bir o'yinchoqda 3 tagacha yetkazish mumkin. O'yin turli o'yinchoqlar bilan o'tkaziladi.

Shahar bo'ylab sayr.

Bu o'yin bolalarda obrazli tafakkurni o'stiradi. O'yin uchun suratlar to'plami kerak bo'ladi. Suratlarda: qaychi, taroq, non, igna va ip, avtomobil, xat, dorili idish, sutli idish va hokazolar. Bolaga quyidagicha voqeani aytib bering.

Sen notanish shaharga borib qolding, u yerdagilarning tilini bilmaysan. Buning ustiga charchagansan, qorningoch. Shaharda turli do'konlar, ustaxona, dorixona, kutubxonalar ko'p. Lekin ularning qaerda joylashganini qanday bilish mumkin. Bolaga birinchi suratni ko'rsatib, unda nima tasvirlanganini tahlil qiling. Birinchi suratda sutli idish tasvirlangan, u nimani ifodalashi mumkin — so'rab ko'ring. Agar topolmasa, aytib bering. Bola bilan bir oz shu tariqa o'ynagach, o'yin mazmunini o'zgartiring: dorixona qaerdaligini qanday ko'rsatish mumkin? Shu yaqin orada maktab borligini yoki kasalxona va oshxona qaerdaligini topishga qaysi ko'rsatkich yordam beradi? kabi savollar bilan bolani faollashtiring. Shahardagi barcha ko'rsatkichlar bilan tanishib chiqilgach, yangi ko'rsatkichlarni tayyorlang. O'yin shu tariqa davom etadi.

Shakllar ustaxonasi

Bu ustaxonani tuzish qiyin emas. Buning uchun boshchasi qirqilgan gugurt cho'plari (yoki «sanoq cho'plari») mis sim (yoki yo'g'on arqonlar), geometrik shakl namunalari kerak bo'ladi. To'g'ri chiziqli shakllar—kvadrat, to'rtburchak, uchburchak kabilarni tayoqchalardan tuzish mumkin, dumaloq shakllar —doira, oval kabilarni arqon yoki simdan tuzish mumkin. Kichkintoy har bir shaklni tuzishni yaxshilab o'rganib olsagina, yangi ko'rinishlarni tuzishga o'ting. Masalan, keng va tor to'rtburchaklar, burchaklari turli bo'lgan uchburchaklar va hokazo namunalarni tayyorlashda ularni bolaga bergan materiallaringizdan yasash mumkinmi — yo'qmi, avvaldan tekshirib ko'rishni unutmang. Bola quyidagi shakllarni yasashi mumkin:

Ajoyib xaltacha

Bu o'yin jarayonida bola narsalarni paypaslab aniqlashga o'rganadi, ko'ruv va sezuv taassurotlarini taqqoslaydi. Sizga bir xil predmetlarning 2 to'plami — geometrik shakllar yoki mayda o'yinchoqlar kerak bo'ladi. To'plamlarning birini qalinroq matodan tikilgan xaltachaga solib bo'g'zini mahkamlang. Bolaning vazifasi — boshlovchi ko'rsatgan namunaga ko'ra xaltachadan predmetni izlab topishdan iborat. Bola bilan o'yin jarayonida o'rin almashib turing.

O'yinning boshqa ko'rinishi — predmetlarning ikkinchi to'plami qog'ozga chizilgan bo'ladi, yana bir ko'rinishi — boshlovchi izlanishi lozim bo'lgan predmetlarni topishni aytadi.

Rangli uylar

Bunday uylarni bolalar o'z sevimli o'yinchoqlari uchun qurishlari mumkin. Uy o'rnida stullardan foydalanish mumkin, bola o'zi xohlagan rangdagi narsalar yordamida o'z uyini shartli ravishda «ranglaydi». Har kim o'zi tanlagan rangidagi narsalarni topish bo'yicha musoboqa uyushtiring: Siz yashil rangdagi narsalarni oling, bolangiz sariq rangdagi narsalarni ajratsin. Bolaga 1 — 2 marta Sizni yutib olishiga imkoniyat yarating. Bu bolaning ishtiyoqini oshiradi.

. Suratlarni eslab qol

Bu o'yin uchun avvaldan 10—12 ta surat tayyorlanadi. Ularning har birida bittadan narsa tasvirlangan bo'lishi lozim. O'yinni bir necha bola o'rtasida yoki Siz va bola o'rtasidagi musobaqa tarzida o'tkazish mumkin. Sharti — ko'proq suratni eslab qolish.

Ishtirokchilar suratlarni 2-3 minut ko'zdan kechirib, so'ng qaytarib beradilar. Keyin o'zlari eslab qolgan suratlarning nomini aytadilar. Nomlar galma —gal so'raladi. Kim oxirida hech kim aytmagan nomni aytsa, g'olib chiqadi.

Asalari qaerga yashirindi

Bu o'yin tafakkurni o'stirishga xizmat qiladi. Uni o'tkazish uchun Sizga qo'g'irchoq xonasi, mebel kerak bo'ladi: dumaloq stol, stulcha, kreslo, divan, krovat, javon (etishmagan narsalar bo'lsa boshqalari bilan almashtirish mumkin). Faqat ularning soni 6 tadan oshmasligi kerak. Agar tayyor mebel bo'lmasa, uni gugurt qutilaridan tayyorlash mumkin. Xona o'rnida qutichadan foydalaning.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuni mazmunida quyidagi talablarni ajratib ko'rsatish mumkin: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmunini tarbiya dasturining tarkibiy qismiga aylantirish; Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ishni bola yashayotgan makon (uyi, hovlisi, ko'cha, bolalar bog'chasi, o'yin maydoni, atrofdagi tabiat va boshqalar) asosida amalga oshirish.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuniga doir psixologik-pedagogik asoslar kuyidagi umumiy mazmunni o'z ichiga oladi: eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini aniqlash va ularning birligini ta'minlash; Shu asosda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmunini belgilash va amalga oshirish; Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning ilmiy-metodik asoslangan didaktik tamoyillarini ishlab chiqish va ularga tayanish; Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirishning samarali metodlari va vositalarini aniqlash va tavsiya qilish.

3. Bajargan tadqiqot ishlarimizni xulosalab, barcha usullarni adabiyotlarda va amaliyotchilar tajribasida o'rganib, turli maktabgacha ta'lim muassasalari va maxsus guruxlari sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyatini shakllantirish va faollashtirish bo'yicha samarali bo'lgan quyidagi usullarni ajratib olish imkoniyatiga ega bo'ldik: predmetni namoyish etish va ko'zdan kechirish; predmet bilan harakatlarni bajarish; iltimos, topshiriqlar; bola gapidan so'z, so'z birikmalari, gaplarni qaytarish; savollar — javoblar; qo'g'irchoq, o'yinchoq orqali muloqat; nutqiy materialni ko'p karra takrorlash; harakatlarni

sharxlash.

Xulosa

Milliy surdopedagogikada maxsus ta'lim sohasida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan, lekin maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirish jarayoni ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nusoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirish masalasi tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari amaliyotidagi ahvolini aniqlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirish amaliyotining ish tajribalarini umumlashtirish, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini shakllantirishni yaxshilashga oid zarur tavsiya va takliflar berishga yordam beradi. Tasdiqlovchi eksperiment surdopedagoglar bilan suhbat, ularni kuzatish, ularning shaxsiy ishlarini o'rganish va maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida A.A Osipova, L.I.Malashinskaya metodikasi asos sifatida olindi. Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatining o'ziga xosliklari aniqlandi. .

Eksperiment natijalaridan olingan ma'lumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim berish jarayonida bilish faoliyatini qisaman shakllanganligi va bunday o'ziga xoslik eshitishi idrokining o'ziga xosligi bilan asoslanishini daliladi. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini shakllantirishda o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan xolda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.O'zbekiston Respublikasi Davlat Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni 29- dekabr 1997 .
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi 29- dekabr 1997 .

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Головчин Л.А. Дошкольная сурдопедагогика. – М.: Владос, 2001.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO'MM, 1993.
3. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. «Surdopedagogika» Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – Toshkent: «Sano-standart» 2012.
4. Волынки В.И. Художественно-эстетическое воспитание и развитие дошкольников – М.: Феникс, 2007.
5. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте – М.: Просвещение, 1991.
6. Королёва С.Г. Развитие творческих способностей детей 5-7 лет: Пособие для педагогов-психологов ДОУ – М.: Учитель, 2009.
7. Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985.

8. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. – М.: Просвещение, 1984. – 295 с.
9. Р.М. Боскис Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2001 .
10. Семаго М.М. Социально -психологические проблемы семьи ребенка - инвалида с детства. М.: 1992.
11. Семаго М.М. Особенности коррекционной работы с семьями, в процессе консультирования ребенка с отклонениями в развитии // Шк. здор. 1996. -№3. С.40 - 54.
12. Ступникова ЖИ.С. Воспитание глухого ребенка в семье. -Киев, 1996.
13. Ткачева В.В. О некоторых проблемах семей, воспитывающих детей с отклонениями в развитии // Дефектология. 1998. - №4. - С. 3-9.
14. Ткачева В.В. К вопросу о создании системы психолого-педагогической помощи семье, воспитывающей ребенка с отклонениями в развитии // Дефектология. 1999. №3. - С. 30-36.
15. Ткачева В.В. Психокоррекционная работа с матерями, воспитывающими детей с отклонениями в развитии. -М.: Издательство «Гном Пресс», 1999.-64с.
16. Усанова О.Н. Психологические основы взаимодействия субъектов практической помощи детям с проблемами в развитии. Автореф. дисс. докт. психол. наук. М.: 1996.1
17. Усанова О.Н. Дети с проблемами психического развития. М.: 1995.
18. Цукерман И.В. Проблемы социализации выпускников специальных школ для детей с нарушением слуха // Дефектология, №1. 1998.
19. Чепурных Е.Е. Состояние и перспективы психолого-педагогической и социальной реабилитации лиц с ограниченными возможностями здоровья в системе образования // Дефектология, №6. 1998. - С. 3-8.
20. Шаповалова О.Е. Методическое, пособие по психологии детей с проблемами в развитии. (С) БГПИ. 1997. 37с.
21. Шеврыгин Б.В. Комплексная реабилитация детей с нарушением слуха. Методические рекомендации. —М.: Санкт -Петербург. 2001. - 341с.

- 22.43.Шипицина ЖИ.М. Старое и новое: социальная защита в России. Спб.: 1997.
- 23..Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М.: 1991..
- 24.Шматко Н.Д., Пелымская Т.В. Если малыш не слышит. - М.: Просвещение, 1995.
- 25.Эффективность деятельности учреждений социального обслуживания семьи и детей // Под ред. Холосова Е.И. М.: 1997. 117с.
- 26..Юдина И.А. Становление коррекционно-педагогической помощи детям с отклонениями в развитии в республике Саха (Якутия) и пути ее совершенствования: Дисс.канд. пед. наук. Екатеринбург, 2001. - 238с

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Белова Н.И. Специальная дошкольная сурдопедагогика. М.: Просвещение, 1985. – 128 с..
2. Инновационные подходы к обучению и воспитанию детей с нарушением слуха/ Под ред. Никитина М.И. СПб.: «Образование», 1997. С. 270-273.
3. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. М.: Просвещение, 1995.
4. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b.
5. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.
6. Краснов Н.В. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 170.с.
7. Шматко Н.Д., Пелимская Т.В. Если малиш не слишит. – М.: Просвешение, 2003. – 255 с.
8. Shomaxmudova R. Farzandingizga ozingiz yordam bera olasiz // Bola va zamon.– Toshkent, 2006. – № 1. – B. 45.

9. Леонгард Э.И. и др. Я не хочу молчат! – М.: Просвещение, 1990.–112 с.
10. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушениями слуха в семье. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.

V.Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Nazarova D. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
2. Маслова Е.С. Использование изобразительной деятельности дошкольного возраста с нарушениями слуха Сборник материалов по итогам научно-исследовательской деятельности молодых ученых в области гуманитарных, естественных и технических наук в 2005 г. – М.: Прометей, 2006. – С. 93–96.
3. Маслова Е.С. Рисование как средство обогащения социальных представлений дошкольников с нарушениями слуха Обучение и воспитание детей с нарушениями слуха на основе верботонального метода. Выпуск 3 под ред. Л.И. Руленковой – М.: СППРиК, 2007. – С. 52–55.
4. Зыков С.А. Проблемы сурдопедагогики. Избранные труды.- М.: «За-грей».-С. 180- 182.
5. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнее воспитание. -М.: АСАДЕМИА, 1999. 227с.
6. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушенным слухом в семье. -М., 1991.
7. Леонгард Э.И. Ранняя слухоречевая абилитация детей с нарушением слуха основа их полноценного включения в общество слышащих.// Проблемы младенчества: нейропсихолого педагогическая оценка развития и ранняя коррекция отклонений. М.: 1999. - С. 74 - 77.

8. Мазурова Н.В. Проблемы семьи, имеющей аномального ребенка. Сб. «Инновации в российском образовании» (Специальное коррекционное образование), МО и ПО РФ, Москва, 1999.
9. Маллер А.Р. Педагог и семья ребенка-инвалида // Дефектология. 1995. - №5. С.15-19.
10. Обухова Т. И. Изучение готовности младших дошкольников с нарушением слуха к созданию предметного изображения / Т. И. Обухова, Е. Н. Сороко // Дефектология. - 2012. - № 4. - С. 58-65

VI .Internet saytlari:

1. <http://www.tdpu.uz>
2. <http://www.pedagog.uz>
3. <http://www.Ziyonet.uz>
4. <http://www.edu.uz>
5. <http://tdpu-INTRANET.Ped>
6. [http: // www.defektolog.ru /](http://www.defektolog.ru/)